

RESEARCH AND EDUCATION  
International Scientific Journal

ISSN: 2181-3191

INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
EDUCATIONAL INNOVATIONS AND  
APPLIED SCIENCES 2022/9

25 OCTOBER, 2022 YEAR

International Scientific Conference

RESEARCHEDU.ORG



PKP | INDEX



# “RESEARCH AND EDUCATION”

## Scientific Research Center



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON EDUCATIONAL  
INNOVATIONS AND APPLIED SCIENCES 2022/9”

[www.researchedu.uz](http://www.researchedu.uz)

**Languages of publication:** o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик, қарақалпақ

TASHKENT, UZBEKISTAN

2022/ OCTOBER 25

## РАДИАКТИВ МОДДАЛАРНИНГ ЕР ТАРКИБИГА ВА ИНСОН САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИРИ, РАДИАКТИВ МОДДАЛАРДАН ТЎҒРИ ФОЙДАЛАНИШ

Абдухалимова Маржона Алишер қизи

Тўлқинов Бахтиёр Ғайрат ўғли

Тошкент педиатрия тиббиёт институти талабаси

Email: [abduhalimovamarjona@icloud.com](mailto:abduhalimovamarjona@icloud.com)

**Аннотация:** Радиацион моддаларнинг ер қатламларига таъсири ва ундан келиб чиқадиган турли хил касалликларни урганиш. радиактив моддаларнинг зарарли ва фойдали томонларини аниқлаш ёрдамида инсон саломатлигига таъсири ва тиббиётда қуллашни амалга оширишда ёрдам бериш.

**Калит сўзлар:** радиактив нуклидлар, атом, ядро ,атмосфера, тупроқ.

**Аннотация:** Изучение воздействия радиоактивных веществ на земные слои и вызываемых им различных заболеваний. Помогает определить вредные и полезные стороны радиоактивных веществ, их влияние на здоровье человека и использование их в медицине.

**Ключевые слова:** радионуклиды, атом, ядро, атмосфера, почва.

**Abstract:** Studying the effect of radioactive substances on the earth's layers and various diseases caused by it. Helping to determine the harmful and beneficial aspects of radioactive substances, their effects on human health and their use in medicine.

**Key words:** radioactive nuclides, atom, nucleus, atmosphere, soil.

Биосферанинг ҳамма қисмида тоғ жинсларида, тупроқда, табиий сувларда ва тирик организм тўқималарида ҳар доим радиактив моддалар мавжуд бўлиб, улар нурланишнинг табиий фонини ташкил этади. Атмосферадаги табиий

радиоактивликнинг манбаи космик нурлар туфайли ҳосил булувчи; углерод- C14, третий H3, бериллий изотопларидир. Ер сиртида мавжуд булган ураннинг, торийнинг ва актинийнинг изотоплари парчаланиши туфайли вужудга келадиган маҳсулотлар атмосферага чиқиб уни ифлослантиради. Уран, торий оилаларига мансуб радиоактив нуклиотидлар табиатда ўта тарқоқ ва тубан концентрациялар холида учрайди. Аммо ер кураида шундай жойлар борки, улардаги тоғ жинслари ўзида катта миқдорда уран ёки торий маданлари тутади.

Тупрокдаги радиоактив моддалар билан суний равишда ифлосланишига куйидагилар мисол бўла олади:

- 1)Атом ва водород бомбаларини ерда синаш.
- 2)Ядро куруллариини тайёрлайдиган турли хил ишлаб чиқариш корхоналари.
- 3)Атом реакторлари ва АЭСлар.
- 4)Радиоактив манбалардан фойдаланувчи корхоналар.
- 5) Ишлаб чиқариш корхоналаридан чиқадиган қолдиқлар.

Ернинг табиий радиоактивлик фониға коинот нурлари ҳам қўшилади. Тупрок абиотик ва биотик омилларни бўғловчи кўприк ҳисобланади. Шундай экан тупрокнинг радионуклидлар билан зарарланиши тирик организмға ҳам зарар етказди. Радиоактив моддаларни қазиб олиш, ташиш, ядровий куруллариини синаш радиоактив моддалар чиқиндиларини тупрокка кумиш натижасида тупрок радиоактив моддалар билан ифлосланади. Натижада тупрок таркибидаги фойдали микроорганизмларға салбий таъсир курсатади.

Тупрокдаги радиоактив моддалар экилган уруг оркали янги усимликка утади.Асосан илдизмеваларда туганакда донли ва дуккакли экинларда куп миқдорда тупланади. Радиоактив изотоплар билан тзарарланган тупрок катламида усадиган усимликлар замбуруглар таркибида радиоактив изотоплар юкори концентрацияда тупланиши аниқланган. Жумладан Чернобил атом халокати содир булган худуд якинидаги тупрокларда картошка тугунакларида  $90 \text{ Sr}$  радиоактив изотопи радиацион нурланиш доза киймати  $40.5 \text{ Bk/kg}$  ,  $40 \text{ K}$  изотопи эса  $85.7 \text{ Bk/kg}$  тенглиги аниқланди.Одатда картошка туганакларида бу курсатгич  $3.7 \text{ Bk/kg}$  нурланиш дозасини норма холатда булиши тасдиқланган.

Демак усимлик ва хайвонлар хар доим ички ва ташки манбалар хосил киладиган нурланишлар таъсирида булади. Атроф мухитнинг радиактив моддалар билан табиий ва сунъий йулар орқали ифлосланиши инсон саломатлигига жиддий салбий таъсир курсатади. тупрокдаги радиактив моддалар организмга тупроқ-усимлик-хайвон-инсон куринишида организмга тери ва овыат хазм қилиш йули орқали ёки усимликлардан бевосита утади. инсон организмга тушган радиактив моддалар бир қисми упка жигар буйрак қон ва мушак каби инсон фаолияти мухим органларда тупланиб радиактив манбага айланади нур таркатади оқибатда инсонда нурланиш касаллиги келиб чиқади. Радиактив моддалар билан хар қандай дозада нурланиш инсон учун хавфли хисобланади. Радиактив моддаларнинг малъум бир ички органларда йиғилиши ва хатто организмнинг бутун хаёти давомида салбий таъсир курсатиши мумкинлиги хақида қайд қилинади. Жумладан Sr-90 Ra-226 радиактив изотоплари скелет органлари таркибида йиғилиши шунингдек  $^{137}\text{Cs}$  радиактив изотоплари ички органлар эндотелий қавати хужайраларида  $^{40}\text{K}$   $^{137}\text{Cs}$   $^{250}\text{Po}$  радиактив изотоплари эса малум бир ички органларда диффузион тавсифда тақсимланиши қайд этилади. Айниқса одам организмда радионуклидлар қалқонсимон без жигар ичак скелет мушкул таркибида юқори консентрацияда тупланиши исботланди. Радиацион нурланиш таъсирида одам организмда уткир ва сурункали нурланиш касаллиги катаракта лейкоз анимия лимфома мйелома қалқонсимон без саратони нафас тизими органларининг усма касалликлари ошқозон ичак саратони сийдик пуфаги саратони курак беги саратони тухумдон ва уругдон саратони тери саратони суяк саратони мия усмаси ва хавфли онкологик касалликлар чиқиши қайд этилган.

Тупроқ таркибидаги радиактив изотопларни қишлоқ хужалигида етиштирилувчи озиқ овқат махсулотлари таркибида радионуклеотидлар шаклидаги консентрациясини камайтириш мақсадида кимёвий милеорация чора тадбирлари утказиш органик уғитлар ва  $\text{CaCO}_3$  билан ишлов бериш орқали тупроқнинг мухитини нейтрал холатга утказиб унумдорлик ва усимликларни радиактив изотопларни суришини камайтирилиши аниқланган. Қишлоқ

хужалиги махсулотларини истеъмол қилишдан олдин қайта ишлаш (ювиш бир қават пустини олиб ташлаш пишириш илдизмеваларини юқори қисмдан 1- 1.5 см қисмини кесиб ташлаш карамнинг бир қават баргларини олиб ташлаш замбуруғларни бир неча соат ош тузи эритмасида эритиб кейин лимон ва сирка эритмасида ювиш ва 50 минут қайнатиш) жараёнида улар таркибидаги радионуклеотиднинг консентрацияси 5-10 мартагача камайтириш мумкин.

Радиактив моддаларнинг зарарли томонлари билан бир қаторда тиббиётда ва бир неча сохаларда фойдали томонлари мавжуд. Радиактив препаратлар куп касалликларни даволашдава касаллик сабабларини аниқлашда кенг миқёсида қулланилади. Саратон касаллигидаги хавфли усмалар борлигини аниқлаш учун усмалардаги туқималарнинг радиактив элементларни ютиб қолиш хоссасидан фойдаланилади. Масалан хавфли усмаларни аниқлашда нишонланган фосфор - 32 булган натрий фосфат ишлатилади. Агар йоднинг -131 изотопи булган натрий йодид қулланилганда қалқонсимон бездаги касалликларни таҳлил қилишда фойдаланилади.

Хроник лейкозни даволашда нишонланган фосфор-32 изотопи руҳ -65 ва олтин – 198 нуклидлари ва натрий форфати буюрилади. Радиактив кобалд -60 изотопи таркатадиган  $\gamma$ -нурлар билан саратон касалликларни даволайди. Бу изотоп парчалангани учун хам уни организмга киритилади мис -64 кумуш -110 олтин-198 нуклидлари организмдаги моддалар алмашинуви жараёнларини урганиш учун радиактив индикатор сифатида ишлатилади. Хар бир уран ядроси парчаланиши жуда катта миқдорда энергия ажралиши билан боради. Замонавий ядро энергетикасининг асоси уран парчаланиши реакцияларига асосланган бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. “Қишлоқ хужалигида экологик муаммолар ва уларнинг ечими” мавзусидаги Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокидаги илмий амалий анжумани (Бухоро наширёти-2020 17-18 декабр) китобидан олинган.
2. С.Машариповнинг “Умумий кимё “ (Ғафур Ғулом номидаги наширёт матбаа ижодиёт уйи Тошкент 2018)
3. [www.kimyo.uz](http://www.kimyo.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.ziyokom.uz](http://www.ziyokom.uz)

## КУШМУЛЛА МАЙДОНИНИ ГЕОЛОГИК ТУЗИЛИШИ

**Панжиев Хикмат Аҳадиллаевич**

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

E-mail: [hikmat.panjiyev02@mail.ru](mailto:hikmat.panjiyev02@mail.ru)

**Аннотация:** Мақолада Бухоро-Хива нефтгазли хавзасинидаги кушмулла майдони геологик тузилиши ва чўкинди қатламининг минералогик таркиби килтирилган. Кушмулла майдони юра даври ётқизиклар нефт ва газга истиқболли ҳисобланади.

**Калит сўзлар:** Палеозой, мезазой ва кайнозой, кушмулла, қорахитой, раимсуфи, юра, карбонат формацияси, туз ангидрит формацияси, неоком.

**Abstract:** The article describes the geological structure of the Kushmulla field in the Bukhara-Khiva oil and gas basin and the mineralogical composition of the sediment layer. The Jurassic deposits of Kushmulla area are promising for oil and gas.

**Key words:** Paleozoic, Mesozoic and Cenozoic, Kushmulla, Karakhitai, Raimsufi, Jurassic, carbonate formation, salt anhydrite formation, neocom.

### Стратиграфия

Худуднинг геологик тузилишида асосан мезо-кайнозой даврлари ётқизиклари иштирок этади. Тасвирланаётган худуднинг геологик тузилишида палеозой, мезозой, кайнозой ёшидаги ётқизиклар иштирок этади. Буларнинг ичида мезо-кайназой даври ётқизиклари кўпроқ ўрганилган. Чунки бу давр ётқизиклари нефт ва газга истиқболли. Бурғилаш маълумотлари Бухоро тектоник поғонасининг жанубий-шарқий қисмида мезозой тагининг қуйи қисмида, жанубий Тянь-Шань герцин бурмаланиш системаси типига мансуб чўкинди-вулканоген формацияси ривожланганлигидан далолат беради.

Палеозой ётқизиклари Бухоро тектоник поғонаси доирасида Қорахитой майдонидаги № 3, 4, 5, Андабозор майдонидаги № 1, 2, Раимсуфи майдонидаги



№ 1, бурғи кудукларида очилган. Бухоро тектоник поғонасининг юра ётқизиқлари литологик таркиби ва пайдо бўлиши шароитига кўра учта фармацияга бўлинадилар: терригенли, карбонатли ва туз-ангидритли.

Юра терриген ётқизиқлари мураккаб қурилган қуриқлик ва денгиз тузилмалари комплексидан иборат бўлиб, палеозой кристал пойдевори устидаги турли даражада метаморфизацияланган триас бурмали қатламлари устида мос ётади. Терриген юра ётқизиқлари қалинлиги Муборак тепаликлари доирасида 77 м дан 314 м гача (жан. Муборак №1 бурғи кудуғи).

Бойсун свитаси ҳамма жойда денгиз терриген-карбонат ётқизиқларидан иборат бўлиб, катта майдонларда тузилишини сақлаб қолиши билан характерланади. Карбонат формаияси ётқизиқлари терриген формаияси ётқизиқлари устида мос ётади ва ўзаро фаиал боғланган оҳактош жинсларининг турли хил комплексидан иборат, уларнинг қалинлиги кенг ораликда ўзгаради (150м, дан 250м гача).

Туз-ангидритли формаиянинг (ТАФ) Чоржўй поғонасидан Бухоро поғонасига ўтишда қалинлиги қисқаради ва ўзининг тузилишини беш аъзоликдан (қуйи ангидритлар, қуйи тузлар, ўрта ангидритлар, юқори тузлар, юқори ангидритлар) уч аъзоликка (Тузли қатламларсиз) ўзгартиради. Қуйи ангидритлар тахлами қалинлигининг рифлараро участкалардан риф массивларининг гумбази йўналишида камайиши излаш белгиси бўлиб ҳисобланади. Ангидритлар тахлами қалинлигининг рифлараро худудлардан риф массивларининг гумбази йўналишида умумий қисқариши рифларнинг ён бағрида ангидритларнинг маҳаллий (локал) кўпайиши ва терраса кўринишидаги майдончаларнинг вужудга келиши билан мураккаблашиши мумкин. Бурғилаш натижалари шуни кўрсатадики, рифли массивлар гумбази устида якка рифларда ҳам, ғов рифларда ҳам қуйи ангидритлар камаяди ва якка рифларнинг ён бағирларида, ғов рифларнинг фақат бассейн, яъни чуқур томони ён бағирларида ошади ва террасасимон майдончаларни ҳосил қилади. Юқори тузлар (галит свитаси). Қуйи қисмида йирик кристалланган зич туз билан зич ангидрит аралашмаси ва қатламчаларидан иборатдир. Кесим бўйлаб юқорида гилли

кўмлари учрайди. Кенг миқёсда юқори ва қуйи қисмида кам қалинликдаги (1-10м) ангидрит қатламлари кузатилади. Юқори ангидритлар. Кимериж-титоннинг тепа қисмида қоплама ангидритлар тахлами ётади, қалинлиги 30м гача етади.

Бўр системаси неоком, апт, альб, сеноман, турон ва сенон ярусларига бўлинган қуйи ва юқори бўлимлардан иборатдир. Литологик жиҳатдан бўр ётқизиклари гил, қумтош ва алевролитларнинг галма-гал такрорланишидан иборатдир. Бухоро поғонаси доирасида бўр ётқизикларининг шимолий йўналиши бўйлаб, неоком-апт тузилмаларининг тўлиқсиз поналашишига қадар кескин қисқариши белгиланади, 1600м дан шимолда 600м гача. Антропоген чўкиндилари иш ҳудудида геологик съёмка материаларига асосан анча мукамал ўрганилган ҳисобланади. Келиб чиқиш жихатидан аллювиал, пролювиал, эллювиал тузилмалар ва уларнинг энг хилма-хил бирикмалари ажратилади. Антропоген ётқизикларининг қалинлиги 0 дан 40 м гача ўзгаради. Структуравий бурғилашда антропоген ётқизикларини неоген ётқизикларидан ажратиш мумкин эмас, шунинг учун улар неоген-антропогенли деб муҳокама қилинади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Акрамходжаев А.М. и др. Литология, стратиграфия, нефтегазоносность Южного и Западного Узбекистана, Ташкент. ФАН. 1971. С. 200.
2. Арифджанов М.Х. Рифовые комплексы карбонатов келловей-окс-форда Узбекистана. Ташкент. ФАН. 1975. С. 162.
3. Бабаев А.Г. Карбонатная формация юрского возраста платформен-ной области Узбекистана и ее нефтегазоносность. Ташкент. ФАН. 1983. С. 1-160.
4. Бабаев А.Г., Симоненко А.Н. и др. Формация юрских палеоседиментационных бассейнов Узбекистана и ее нефтегазоносность. Ташкент. 1990. С. 1-292.
5. Ахмедов, Х. Р., Панжиев, Х. А., & Эшмуродов, А. П. (2021). СТРОЕНИЕ ЮРСКО-МЕЛОВЫХ ОТЛОЖЕНИЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ ЧАСТИ БУХАРО-ХИВИНСКОГО НЕФТЕГАЗОНОСНОГО БАССЕЙНА. *StudNet*, 4(5).

## TAEKVONDO SPORT TO‘GARAKLARINING UMUMTA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA TA’SIRI

**Abdiraxmonov Nodirjon Qobiljonovich,**

**Ergashev Sardor Tohirjonovich**

Namangan Davlat Universiteti magistrantlari

**Annotatsiya:** o‘quvchilar uchun umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlar va uning tarkibiy qismi bo‘lgan Taekwondo sport to‘garaklarining ahamiyati hamda o‘quvchi bolalar jismoniy sifatlariga, ya’ni chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik ta’siri haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinfdan tashqari ishlar, Jismoniy sifatlari, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, jismoniy rivojlanish.

## THE EFFECT OF TAEKWONDO SPORTS CLUBS ON THE PHYSICAL PREPARATION OF SECONDARY SCHOOL STUDENTS

**Annotation:** about the importance of extracurricular activities for students in secondary schools and Taekwonodo clubs, which are part of it, and the impact on the physical qualities of students, ie agility, speed, strength, endurance, flexibility theoretical information and practical recommendations.

**Key words:** extracurricular activities, Physical qualities, agility, speed, strength, endurance, flexibility Physical development.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta etibor qaratildi. Ma’naviy-marifiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an’analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘liq ko‘pgina tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni<sup>1</sup> buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin. Umumta’lim maktablarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘rni juda ham ahamiyatli bo‘lib, ushbu mashg‘ulotlar maktab o‘quvchilariga bazaviy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish uchun xizmat qilmoqda. Sport to‘garaklari sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli ekanligini hisobga olib, sport to‘garaklari ichida biz yuqorida keltirib o‘tgan “Taekvondo sport to‘garaklari”ning o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini ushbu tadqiqot ishimiz orqali ilmiy asoslashga urindik.

Asosiy qism. Umumta’lim maktablaridagi „*Sinfdan tashqari ishlar*” faoliyati juda ham keng qamrovli bo‘lib, uning o‘ziga xos tarifi „Umumiy ta’lim maktablarida o‘quv kuni yakunlanganidan so‘ng sinfdan tashqari vaqtda o‘tkaziladigan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlari, sport hamda sog‘lomlashtirish tadbirlari tizimini sinfdan tashqari ishlar (STI) deb atash qabul qilingan. Bundan tashqari Sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda, „Maktab jismoniy tarbiya jamoasi” asosiy vazifalarni bajaradi va quydagicha tariflanadi.

**Maktab jismoniy tarbiya jamoasi** (keying qatorlarda MJTJ deb yoziladi) bu o‘quvchilar jismoniy tarbiyasini amalga oshirishda maktab va oilaga yordam beradigan o‘quvchilarning ko‘ngilli, o‘zlarining xohishi va tashabbusi bilan faoliyat ko‘rsatadigan jamoatchilikka asoslangan tashkilotidir.

Biz mazkur faoliyatni amalga oshirishda Maktab jismoniy tarbiya jamoasining asosiy uch kengashi mavjud. *Ular:*

1. *Ommoviy tashkiliy ishlar kengashi.*
2. *O‘quv –sport ishlari kengashi.*
3. *<<.Alpomish>> va << Barchinoy>> salomatlik testi kengashi.*

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni

Asosan mazkur kengash faoliyati ko‘pgina sog‘lomlashtiruvchi tadbirlarni o‘zida jamlaydi.

**Maktab sport musobaqalari sinfdan tashqari ishlarning ommaviy shakli sifatida. Sinfdan tashqari ishlarning musobaqa shakli.** Umumiy ta’lim maktabida olib boriladigan jismoniy tarbiya jarayoni va bu jarayon tarkibidagi barcha jismoniy tarbiya ishlariga yakun rolini bajaradi, ommaviy tarzda uyushtiriladigan tadbirlardan biri sanaladi. Albatta musobaqalarni tashkillash va o‘tkazish o‘ziga xos quydagicha ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab o‘tkaziladigan musobaqaning nizomi yoziladi va uni o‘tkazish dasturi tuziladi. Har qanday musobaqa nizomi bir necha bo‘limlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Musobaqaning mazmuni yoki dasturi, musobaqaning turi va qo‘yilgan vazifalari bilan belgilanadi.

Yuqoridagi barcha malumotlar sizga ommoviy tashkiliy ishlar faoliyatini tanishtirib o‘tish uchun bayon etildi.

Sport to‘garak mashg‘ulotlari sinfdan tashqari ishlari asosiy ko‘rinishi deb hisoblashimizga quydagi asosiy sabablarni keltirdik. *Ular:*

- 1. Maktablarda sport to‘garaklarining ko‘lamining kengligi.*
- 2. O‘quvchilarning ko‘pchiligi sport to‘garaklariga qatnashishi.*
- 3. Sport to‘garalari turli kasalliklarga va zararli odatlarga nisbatan imunitet ekanligi.*
- 4. Sport to‘garaklari o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini yuqoriligi va kelgusida sport faoliyati bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun ba’za ekanligi bilan izohlash mumkin.*

**Tajriba qismi.** Biz quyida Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani -sonli sport maktabida tashkillangan Taekvondo sport to‘garaklariga muntazam qatnashuvchi 12 nafar o‘g‘il bolalarni tajriba hamda shu maskandagi 19 nafar Karate sport to‘garagi a’zolarini nazorat guruhi sifatida tanlab oldik. O‘quvchilarni jismoniy sifatlarining rivojlanishini kuzatish davomida quydagi natijalarni quyidagi jadvalda qayd etdik.

*Maktab o‘quvchilarning (10-11 yosh) tajribadan keyin bo‘lgan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari*

<i>№</i>	<i>Sinov turlari</i>	<i>Sinaluvchilar Soni</i>	<i>Tajriba</i>	<i>Nazorat</i>	<i>t</i>	<i>P</i>
<i>1</i>	<i>Yuqori startdan yugurush (30m)</i>	<i>19-n</i>	<i>5,7 ± 0,09</i>	<i>6,3 ± 0,05</i>	<i>1,23</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>6,4 ± 0,06</i>	<i>6,8 ± 0,04</i>	<i>1,02</i>	<i>&gt;0.05</i>
<i>2</i>	<i>3x10 mokisimon yugurish</i>	<i>19-n</i>	<i>7,7 ± 0,15</i>	<i>8,3 ± 0,06</i>	<i>1,23</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>7,9 ± 0,16</i>	<i>9,0 ± 0,07</i>	<i>1,02</i>	<i>&gt;0.05</i>
<i>3</i>	<i>Arg‘amchidan sakrash (30 soniya)</i>	<i>19-n</i>	<i>38,3 ± 1,46</i>	<i>32,6 ± 0,71</i>	<i>1,38</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>45,5 ± 1,19</i>	<i>39,2 ± 0,84</i>	<i>1,25</i>	<i>&gt;0.05</i>
<i>4</i>	<i>Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)</i>	<i>19-n</i>	<i>143,4 ± 0,72</i>	<i>137,3 ± 0,77</i>	<i>2,43</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>133,5 ± 1,63</i>	<i>126,6 ± 1,66</i>	<i>2,04</i>	<i>&gt;0.05</i>
<i>5</i>	<i>150 gr koptokni uloqtirish (sm)</i>	<i>19-n</i>	<i>26,7 ± 0,51</i>	<i>22,5 ± 0,34</i>	<i>1,79</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>23,2 ± 0,49</i>	<i>18,8 ± 0,33</i>	<i>0,94</i>	<i>&gt;0.05</i>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni
2. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov UMUMIY O‘RTA VA KASB-HUNAR TA’LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. -200. b.
3. Bondarevisky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.
4. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
5. R.Abdumalikov ,T.T. Yunusov. va boshqalar. «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya taolimining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma. T.,

## “JANNAT MEVASI” – HAR DARDGA DAVO

**Oripova Mahliyo Bahodir qizi**

JDPI Magistratura bo‘limi Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi

(Biologiya mutaxassisligi) magistranti

[oripovamahliyol1997@gmail.com](mailto:oripovamahliyol1997@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada mahalliy hududimizda uchrovchi tutdoshlar (anjirgullilar) oilasiga mansub anjir o‘simligi (*ficus carica L.*)ning foydali va dorivor xususiyatlari hamda undan foydalanish usullari ko‘rsatilgan. Bu orqali bozorlarimizda anjir mevasining ko‘payishi, hamda o‘quvchilarning o‘simliklarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish masalalari ko‘rilgan.

**Kalit so‘zlar:** tutdoshlar, anjir, “yashil dorixona”, blastofaga arilar, partenogenez, pectin, “anjir suti”.

### "PARADISE FRUIT" IS A CURE FOR EVERY AILMENT

#### ABSTRACT

The article shows the beneficial and medicinal properties of the fig plant (*ficus carica L.*) belonging to the family of figs found in our local area, as well as the methods of its use. Through this, the problems of increasing the number of figs in our markets and increasing the interest of students in studying plants were seen.

**Key words:** Mulberries, figs, "green pharmacy", blastophaga bees, parthenogenesis, pectin, "fig milk".

Tabiatni rang-barang o‘simliklar olamisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tabiiy va sun‘iy suv havzalari, tog‘, dasht, adir va cho‘llarimizda ham xilma-xil o‘simliklar uchrab moddalar aylanishida ishtirok etadi. Hozirgi paytda Yer yuzida

500000 dan ortiq Yuksak o‘simliklar tarqalgan. Ularning xususiyatlari ham xuddi turlar soni kabi xilma-xildir. Har bir mintaqada uchrovchi o‘simliklar o‘zining takrorlanmas xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular orasida manzarali, yem-xashakbop, oziq-ovqat uchun foydalaniladigan ajoyib turlari uchraydi. Tabiatda yana shunday o‘simliklar borki, ular dorivorlik xususiyati tufayli qadim zamonlardan insonlarning ko‘makchisiga aylanib ulgurgan.

Insonlar “yashil dorixona” takibiga kiruvchi o‘simliklarni aniqlashi, ularning dorivorlik xususiyatlarini o‘rganishi va foydalana boshlashi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Qadimgi odamlar ayrim o‘tlar ulani og‘riqdan xalos etishini sezishgan. Bunda ularga yaralangan va kasal bo‘lgan hayvonlar yaxshi yordam bergan. Ular o‘simliklar orasidan o‘zlariga kerak bo‘lgan “dorilarni” tanlashgan. Shu bilan birgalikda qomusiy olimlarimiz Abu Ali ibn Sinoning “Tib Qonunlari”, “Kitob ush-Shifo”, Abu Rayhon Beruniyning “Saydana” asarlarida ham o‘simliklardan olinadigan dorilar hamda ularni tayyorlash usullari, va qaysi dori qanday kasalikka davo ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Keyinchalik dorivor o‘simliklar ustida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning ham bu boradagi xizmatlari beqiyos. Ma’lumotlarga qaraganda hozirgi davrda dorivor o‘simliklarning 1500dan ortiq turidan dunyo miqyosida foydalanilmoqda. Kelajakda ularning turlari yana ham ortadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘simliklardan oqilona foydalanish davr talabi hisoblanadi. Shunday foydali va biz sevib iste’mol qiladigan o‘simliklardan biri anjir (*ficus carica L.*)dir.

Anjir(*Ficus carica L.*) – tutdoshlar (anjirgullilar) oilasiga mansub subtropik meva turi. Turkiya, Jazoir, Yevropaning janubi, AQSHda katta maydonlarni egallaydi. Shuningdek, Kavkaz, O‘rta Osiyo, Qrimda ham yetishtiriladi. Yovvoyi holda O‘rta dengiz bo‘yi, Kichik Osiyo, Eron, Shimoli-g‘arbiy Hindistonda o‘sadi.

Anjir juda qadimdan (Osiyoda 5 ming yildan, Yevropada kamida 2ming yildan beri) madaniylashtirilgan o‘simlik. Anjir daraxtining bo‘yi 4- 10 m, shoxlari qalin yoyilib o‘sadi, novda, barg va mevasida sutsimon shirasi mavjud. Barglari yirik, 3-7 bo‘lmali, ba’zan bo‘lmasiz, to‘q yashil, orqasida tuklar bor. Bir yilda 2-3 marta gullaydi (aprel-may, iyun-iyul, avgust). Mayda 1 jinsli gullardan iborat to‘pguli



bo'lajak “meva” ichida bo'lib, mayda blastofaga arilar yordamida changlanadi, ba'ziari esa changlanmasdan (partenogenez) va urug' tugmasdan meva qiladi. Mevasida 20-24% qand, 0,5-4,2% pektin moddalari, klechatka, 0,1 % gacha organik kislotalar, karotin, kalsiy, temir, fosfor va boshqalar uchraydi.

Anjir (*ficus carica L.*) asosan bir yillik pishgan qalamchalaridan ko'paytiriladi. Ikki yilda garq hosilga kiradi. 50-80 yilgacha meva beradi, o'zi esa 150-200 yilgacha yashaydi. Bir tupi 50 kg gacha meva tugadi. Bu ajoyib o'simlik bir mavsumda ikki marta hosil beradi. Birinchi hosil (xoki anjir) ancha kam bo'lib, iyun-iyul oylarida, ikkinchisi (asosiy) sentabr oyida pishadi. Bu meva ho'lligicha, qoqi hamda konserva holida iste'mol qilinadi, jem, murabbo tayyorlanadi. Xalq amaliyotida anjir bargi uzum va mevalarni quritishda ishqor sifatida, “suti” teri kasalliklarini (so'gal, temratki), chayon a ari chaqqan joylarni davolashda ishlatiladi.

Anjir tuplari sovuqqa chdamsiz bo'ganidan O'zbekiston sharoitida qishda ko'milib, bahorda ochiladi. Anjir nanga ancha talabchan, yengil va serunum tuproqda yaxshi o'sadi. Sho'rlangan yoki shag'alli tuproqlarda deyarli o'smaydi. Anjir tupiga 3-4 ta asosiy tanali buta ko'rinishida shakl beriladi. Yozda bir- ikki marta shu yili chiqqan qalinlashtiruvchi novdalar, qurigan shoxlari kesib tashlanadi. Anjirzor bog'lar vegetatsiya davrida 9-10 marta sug'oriladi. O'zbekistonda kadota, sariq anjir, qora anjir, chapla va boshqa navlari ko'p ekiladi.

Kadota- mevasi o'rtacha 35-40 gr, dumaloq, nok shaklida, sarg'ish, sal tilimli. Eti och sariq, jigarrang tovlanadi, yumshoq, shirin. Tupi 45-50kg hosil beradi. 30% i qoqi holatida tushadi, qoqi tarkibida 71-72% qand bo'ladi. O'zbekistonning hamma viloyatlari uchun iqlimlashtirilgan.

Sariq anjir- jaydari navi mevasi yirik, 50-60 gr, sariq, yassi, sal tilimli. Eti sersuv, yumshoq, shirin. 25% i qoqi holatida tushadi, qoqining tarkibida 63-70% qand bo'ladi. Tupi 40-50kg hosil beradi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida tarqalgan bo'lib, anjirzorning 80-90% ini tashkil etadi.

Qora anjir- mevasi o‘rtacha 35-45gr, nok shaklida, to‘q binafsha rangda, tilimli. Eti sarg‘ish, yumshoq, shirin. Tupi 40-50kg hosil beradi. 30-35% i qoqi holatida tushadi, qoqi tarkibida 70-72% qand bo‘ladi. O‘zbekistonning hamma viloyatlari uchun iqlimlashtirilgan.

Chapla-mevasi o‘rtacha 35-45gr, dumaloq, nok shaklida, och jigarrang, sal tilimli, siyrak tuk bilan qoplangan. Eti yumshoq, shirin, ichi havol. 208-30% I qoqi holatida tushadi, qoqi tarkibida 70-75% qand bo‘ladi. Bu nav ham yuqoridagilari kabi O‘zbekistonning hamma viloyatlari uchun iqlimlashtirilgan.

Qadim- qadimdan tabobatda keng qo‘llanilgan. Anjir mevasi qaynoq suv yoki sutda damlab iste‘mol qilinsa yo‘tal, tomoq og‘rig‘ini davolashda yaxshi samara beradi. Mag‘zi esa tana haroratini tushiruvchi va terni haydash xususiyatiga ega. Qora anjir bod kasalligida yordam beradi. U echki suti bilan birgalikda qaynatib iste‘mol qilinsa organizmni zararli moddalardan tozalaydi, hamda immun tizimini mustahkamlaydi. Bu tansiq meva o‘pka sili, mushaklarning holsizlanishi kabi xastaliklarda ham eng yaxshi davo hisoblanadi.

Ushbu mevada olmaga nisbatan temir moddasi bisyor. Shu sabab kamqonlik bilan og‘rigan bemorlarga anjir iste‘mol qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, yurakning tez urishi, bronxial astma (ziqqi nafas), ko‘krak og‘rig‘i, o‘pka pardasi yallig‘lanishi(plevrit) da nihoyatda foydali. Quritilgan anjir ich surish xususiyatiga ega. Uning sharbati esa bolalar uchun quvvat bag‘ishlovchi darmondori sanaladi. Mazkur sharbat ishtahani ochib, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Bundan tashqari revmatizm(bod), teri kasalliklari, buyrak va qovuqda toshlar paydo bo‘lganda, jigar hajmi kattalashib og‘riq berganda anjir sharbatini ichish yaxshi samara beradi. Anjir moddasining fermenti fitsin, fibrinin (qon ivishida hosil bo‘ladigan oqsil modda)ni eritish xususiyatiga ega. Shu sabab qon tomirlarda tromb hosil bo‘lishiga moyil hamda tromfoblebit kasalligi bilan og‘rigan bemorlarga doimiy ravishda iste‘mol qilish tavsiya etiladi. Anjir yurak kasalligiga ham davo. Unda yurak faoliyatini yaxshilaydigan kaliy tuzi mavjud. Anjir o‘zida bir qancha ijobiy xususiyatlarni jamlagan bo‘lsada mazkur mevani hammaga ham tavsiya etib bo‘lmaydi. Xususan, semizlikka moyil

insonlar, qandli diabet bilan og‘rigan bemorlar anjirni ko‘p iste‘mol qilmaganlari ma‘qul. Chunki uning tarkibida ko‘p miqdorda qand moddasi mavjud. Shuningdek, anjirda ko‘p miqdorda oksalat kislotasi borligi sabab podagra, buyrak tosh kasalligida ham mazkur mevani iste‘mol qilish tavsiya etilmaydi. Tarkibida shavel kislotasi sabab me‘da- ichak xastaliklari bilan og‘rigan bemorlarga ham bu mevani me‘yorida tanovul qilganlari ma‘qul.

Hozirgi vaqtda tabiiy ravishda davolanishga bo‘lgan talabni e‘tiborga olib, anjir kabi foydali o‘simliklarni ahamiyatini bemalol tasavvur etsa bo‘ladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda anjirning istiqbolli navlarini yaratib, anjirzorlarni tashkil etish lozim. Buning natijasida aholining anjirga bo‘lgan ehtiyoji qondirilishi bilan birga chet eldan import qilinayotgan mahsulot hajmi ham kamayadi. O‘quvchi yoshlarga esa bu kabi foydali, dorivor o‘simliklarni xususiyatlarini o‘rgatish – ularda kelajakda o‘simliklarni parvarish qilish hamda ko‘paytirishga doir ko‘nikmalarini oshirishga imkon beradi

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

- 1.: O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
- 2.: Ekologiya xabarnomasi №1(189)2017.
- 3.: Internet ma‘lumotlari: Avitsenna.uz sayti.

## LINGUACULTURAL ASPECTS OF MODAL VERBS IN ENGLISH LANGUAGE

**Usmonova Dono Sotvoldievna**

Teacher of English language department  
Fergana state university

**Yunusov Akhliddin Ubaydullayevich**

2nd year student of master's degree in  
English Language Department  
Fergana state university

**Abstract:** There is no other lexico-grammatical category in the English language that the category of modality, it is a broad category that expresses the speaker's attitude to reality. It can be expressed primarily by mood forms, modal verbs and their equivalents and modal words. Modality plays a very important role in language. Modality is a grammatical category that reflects the speaker's attitude to the content of the utterance and the utterance itself to reality.

**Key words:** *modal verbs, politeness, linguacultural aspect, linguistic category.*

Modal verbs form the core of modality as a linguistic category (lat. Modus - measure, method) expressing different types of statement attitude to reality, as well as different types of “subjective qualifications of the communicated” (Yartseva, 1998, p. 112). On the one hand, it is one of the most well-established, and on the other hand, the most controversial concepts in modern linguistics (Zeleneckij & Novozhilova, 2003, p. 73). The category of modality is closely related to the human factor and “should be especially sensitive to the changes that occur in a person, in his historically changing consciousness” (Miloserdova, 1991, p. 35). In this regard, we are going to study modal verbs in terms of their linguocultural aspects. When we talk about modal

verbs in the English language, we immediately name the "classical" ones that make up the core of their group: *may, might, can, could, must, need, will* and etc.

From the point of view of cultural linguistics, language not only reflects reality, but interprets it, creating a special reality in which a person lives (Maslova, 2001, p. 5). Linguocultural aspects of modal verbs in English is present when they are used as markers of polite speech. The category of *politeness* is not only an important factor in the successful implementation of human communication but, as a linguo-social, cultural phenomenon, it forms the cultural characteristics of a nation, that is, it becomes a component of the cultural picture of the world of people speaking a particular language. The picture of the world usually means "the primary all-encompassing image of the world, which is at the center of the human worldview" (Serebrennikov, 1988, p. 21).

Politeness is called by some researchers a particular type of discourse: "Due to the fact that discourse is a communicative category, various communicative variables can be relevant for its classification. The linguistic-socio-cultural basis of the category of politeness is expressed in speech etiquette and communication stereotypes of members of society, transmitting various culturally determined manifestations of their polite and friendly attitude towards each other. Even though English, German, Austrian and Russian languages belong to the same language family, they have some peculiarities in terms of expressing politeness. For instance, in the business environment in Germany and Austria there is a clear observance of the status of communication between team members, but it is so veiled in language that a representative of another culture may not feel it. For example, even if the Austrian chief of a company makes an urgent request to his secretary, this request will sound very polite:

*Könnten Sie bitte das kopieren? - Could you please copy this?*

While in the Russian polite language appeal, only the word "please" will be indicating politeness, and the request itself is expressed as an imperative

*Please make copies of these documents - Пожалуйста, сделайте копии этих документов.*

Reukova (2005) cites in her research an example from the practice of intercultural corporate communication, when an Austrian manager, having made a request in this form to a Russian colleague, did not get the results of his assignment, since she simply did not understand the pragmatics of the statement (p. 50). As we can see, and probably someone already knows from their own experience, the cultural barrier can be much more dangerous and unpleasant than the language one. It is made of absolutely transparent glass and is imperceptible until you break your forehead against this invisible barrier (Ter-Minasova, 2000, p.34). Therefore, knowledge of the socio-cultural characteristics of polite behavior and mastery of the corresponding speech patterns are very important for foreign language communication.

English has certain linguistic structures in which modal verbs are used primarily to give a polite tone to speech. In this case, it is not their semantics that dominates, but their pragmatics, modal meanings fade into the background, which causes the isomorphism of these verbs. For example, as a rule, the seller turns to the buyer with an offer to help, which is framed as a question:

*Could I help you?*

*Can I help you?*

*Do you need help?*

Both phrases are interchangeable, since in this speech cliché the category of politeness comes to the fore, and the internal semantics of physical possibility in the modal verbs *can* and *could* very in their internal semantics which figures politeness. *Could* means *respect* and *politeness* more explicitly rather than *can*.

Summing up, we can say that in the semantics of each modal verb in the English language there is a central, immanent meaning that reflects a certain type of modality, and, depending on the situational, grammatical, lexical context, it is supplemented by the meanings of other types of modality. Differentiation of the meanings of modal verbs shows their close systemic connection when different verb forms convey the same semantic and pragmatic characteristics. When modal verbs are used as markers of polite speech, they tend to be in relatively stable speech constructions, and their semantics fade into the background, giving way to pragmatics.

## REFERENCE

1. Abbasova, N. K. (2018). Using Effective Techniques Developing Learners' Critical Thinking in Teaching English Proverbs and Sayings. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
2. Abbasova, N. (2019). Using effective techniques for developing critical thinking of the learners while teaching english proverbs and sayings. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(3), 107-110.
3. Satvoldievna, U. D., & Qizi, A. M. N. (2020). Comparative typological analysis of semantic-structural features of conditional inclination in different systematic languages. *Проблемы современной науки и образования*, (4-2 (149)), 21-23.
4. Usmonova, D. (2022). PRINCIPLES OF DIVISION OF WORD CATAGORIES IN UZBEK LANGUAGE. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(2), 60-65.
5. Usmonova, D. S., & Yusupova, M. I. Q. (2021). Comparative analysis of the somatic phraseological units of the english and russian languages with the component “heart”. *Current research journal of philological sciences (2767-3758)*, 2(11), 94-99.
6. Усмонова Д. С. Роль и особенность соматических фразеологизмов различных языков //Мировая наука. – 2019. – №. 9. – С. 250-252.
7. Satvoldievna, U. D., & Qizi, A. M. N. (2020). Comparative typological analysis of semantic-structural features of conditional inclination in different systematic languages. *Проблемы современной науки и образования*, (4-2 (149)), 21-23.
8. Satvoldievna, U. D., & Qizi, R. K. B. (2020). Linguistic analysis of puns in the English language. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 38-40.
9. Sotvoldiyevna U. D. et al. Political Euphemisms in English and Uzbek Languages (A Comparative Analysis) //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – Т. 9. – С. 92-96.
10. Satvoldievna, U. D. (2021). Axiological Characteristics Of English, Uzbek And Russian Phraseological Units. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 40-45.

11. Satvoldieva, U. D. (2020). A typological analysis of body parts names in English as part of somatic phraseology. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 32-34.
12. Aliyeva, N. (2021). ИЗОМОРФИЗМ АНГЛИЙСКИХ КОЛЛОКАЦИЙ И ФРАЗЕМ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ С УЧЕТОМ ПЕРЕХОДНОСТИ ЗНАЧЕНИЯ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
13. Dushatova, S. (2022). EVFEMIZM TUSHUNCHASI TAHLILI. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(3), 159-163.
14. Aliyeva, N. (2021). MODERN CONCEPTS OF STUDYING PHRASEOLOGISMS IN THE FRAMEWORK OF FRAME REPRESENTATION AND THEORY OF CONCEPTUAL METAPHOR. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 2(12), 206-211.
15. Aliyeva, N. (2021). Modern concepts of the study of phraseological units within the framework of frame representation and the theory of conceptual metaphor. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 147-156.
16. Aliyeva, N. (2021). СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕМ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 3(8).



**MASHG‘ULOTLARDA MUSOBAQA USULI ORQALI  
KURASHCHILARNING HUJUM VA HIMOYADAGI TAKTIK  
HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Mashrapova Shohsanam Shuxratjon qizi,  
G‘ulomov Zafar Voxidjon o‘g‘li**  
Namangan Davlat Universiteti magistrantlari

**Annotatsiya:** “Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari” tarkibiga kiruvchi “Musobaqa usuli” dan foydalanish kurashchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning natijalarini yaxshilash, hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda eng qulay vosita ekanligi haqida nazariy ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** taktik tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, xususiy metodlari, musobaqa usuli.

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING WRESTLING PLAYERS’ ATTACK  
AND DEFENSIVE TACTICAL ACTIVITIES THROUGH  
COMPETITION IN TRAINING**

**Annotation:** Theoretical information on the use of the "Competition Method", which is part of the "Special Methods of Physical Education and Sports", is the most convenient tool for improving the system of training wrestling players to improve their results, attack and defense tactics.

**Keywords:** tactical training, technical training, special methods, competition method.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta etibor qaratildi. Ma’naviy-marifiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an’analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘liq ko‘pgina tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi

“Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni<sup>2</sup> buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin. Hozirda barcha sport turlarida hujum va himoya taktik tayyorgarligi alohida ahamiyat ega hisoblanadi. Bunga sabab mashg‘ulotlarda o‘yinning texnik usullari va uni o‘zlashtirish, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lishiga qaramasdan sportda yaxshi natija ko‘rsatish uchun sportchilarning taktik tayyorgarlikga ega bo‘lishi tabab qilinadi. Jismoniy tayyorgarlikning o‘rni, ayniqsa, musobaqalar bir necha kun o‘tkazilsa va musobaqa muhosasiz davom etadigan bo‘lsa, hamda taktik tayyorgarlik yetarli bo‘lmasa, sportchilar hujum va himoya texnikasini kutilgan darajada bajara olmasligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Kurashchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish ularning natijalarini yaxshilash, hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda “Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari” tarkibiga kiruvchi “Musobaqa usuli” dan foydalanish eng qulay vosita bo‘lib, hizmat qilishini quydagi malumotlarda bayon etiladi.

Sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchilarni tayyorlashda ko‘pgina o‘rgatish usullaridan foydalaniladi. Albatta har bir usulni o‘ziga xos jihatli mavjud. Bizga tanish bo‘lgan usullardan biri musobaqa usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan sport mashg‘ulotlarda ma’lum bir o‘yin yoki harakat texnikasini o‘rgatishda foydalaniladi. Musobaqa usulining o‘ziga xosligi shundaki u orqali o‘yin texnikasini kurashchilar maksimal namoyon etishga erishiladilar. Buning asosiy sababi o‘zaro raqobatlashuv hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari haqida so‘z yuritilganda albatta quydagi usullarni yodga olamiz.

Musobaqa usuli asosan mashg‘ulotlarda yangi o‘yin texnikasini o‘zlashtirilgandan so‘ng qo‘llaniladi natijada kurashchilari shu harakatlarni o‘zaro jamoalar o‘rtasida kichik musobaqa tashkillash orqali yanada mustaxkamlanadi. Bu musobaqa usulining o‘ziga xosligini to‘la yoritishga kamlik qiladi va uning yana bir

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni

eng kerakli jihati uni mashg‘ulotlarda faqatgina o‘yin texnikasiga oid harakatlarni tarbiyalashgina bo‘lmay, u orqali kurashchilar hujum va himoya taktikasi rivojlantirish uchun asosiy usul hisoblanadi.

Ushu usulda mashg‘ulotni tashkillash va o‘tkazishni qanchalik kerkligini va taktik harakatlarni rivojlanishi haqida so‘z yuritayotganda biz aslida o‘yin taktikasi o‘zini nima uni vazifasi haqida qisqacha malumot keltirsak. Taktika ikki ko‘rinishda amalga o‘shirilib, ular a) hujum taktikasi, b) himoya taktikasiga bo‘linadi. Taktika – malum bir texnik harakatlar to‘plamini mahorat bilan qo‘llashni oldinda va musobaqa jarayonida murabbiy hamda jammo tomonidan rejalashtirish tushiniladi. Obrazli qilib aytganda, taktika bu – generallar o‘yinidir.

Chunki, mashg‘ulot va musobaqa jarayonida sportchilarning o‘yin faoliyati murabbiy tomonidan boshqariladi, barcha kerakli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu usul yordamida mashg‘ulot tashkil etilsa, uning tub negizida o‘zaro musobaqalashuv o‘rin oladi va bu taktik tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun keng yo‘l ochib beradi.

Maqsad: kurashchilarning hujum va himoyadagi taktik harakatlarini rivojlantirishda musobaqa usulidan foydalanish bilan ushbu harakatlarni tez o‘zlashtirishga imkon berishini ilmiy asoslashdir.

Vazifa: 1. Kurashchilarni mashg‘ulot jarayonida rejalashtirilgan taktik harakatlarni musobaqalarda qo‘llash hamda kamchiliklarni bartaraf etish .

2. bolchilarni hujum va himoyadagi taktik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni va musobaqa jarayonini o‘rganish hamda tahlil qilish;

Kurashchilarning mashg‘ulot jarayonidaga mos bo‘lgan usulni tanlash va unga hujum va himoyadagi taktik harakatlarni joylashtirish, bu jarayonga biz kurashchilar tomonidan o‘yinda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan hujum yoki himoya taktikalarni qay darjada o‘zlashtirilganligini bevosita nazortaga olish imkoni tug‘iladi hamda ulardan qay biri yuqori darajada bajarilyotgani yoki qaysidir taktik harakatni bajarishda kurashchilar muammoga uchrayotganligini ham aniqlab olamiz. Odatda o‘yin usuli yordamida shug‘ullanuvchilarni faoliyatga ijodiy yondoshuvni shakllantiriladi ammo,

musobaqa usuli esa sportchilarni texnik va taktik harakatlarni maksimal darajada namoyon qilishga majbur qilib qo‘yadi. Bunga asosiy sabab bu har bir mashg‘ulotda musobaqalashuv, o‘zaro raqobat va g‘oliblikka intilish borligi hisoblanadi. Olib borgan kichik tadqiqotimizda shuni ko‘rishimiz mumkinki, shug‘ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligida sezilarli darajada o‘zgarish ko‘zga tashlandi.

***Maktab o‘quvchilarning (10-11 yosh) tajribadan keyin bo‘lgan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari***

<i>No</i>	<i>Sinov turlari</i>	<i>Sinaluvchilar Soni</i>	<i>Tajriba</i>	<i>Nazorat</i>	<i>t</i>	<i>P</i>
1	<i>Yuqori startdan yugurush (30m)</i>	19-n	<i>5,7 ± 0,09</i>	<i>6,3 ± 0,05</i>	<i>1,23</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>6,4 ± 0,06</i>	<i>6,8 ± 0,04</i>	<i>1,02</i>	<i>&gt;0.05</i>
2	<i>3x10 mokisimon yugurish</i>	19-n	<i>7,7 ± 0,15</i>	<i>8,3 ± 0,06</i>	<i>1,23</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>7,9 ± 0,16</i>	<i>9,0 ± 0,07</i>	<i>1,02</i>	<i>&gt;0.05</i>
3	<i>Arg‘amchidan sakrash (30 soniya)</i>	19-n	<i>38,3 ± 1,46</i>	<i>32,6 ± 0,71</i>	<i>1,38</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>45,5 ± 1,19</i>	<i>39,2 ± 0,84</i>	<i>1,25</i>	<i>&gt;0.05</i>
4	<i>Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)</i>	19-n	<i>143,4 ± 0,72</i>	<i>137,3 ± 0,77</i>	<i>2,43</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>133,5 ± 1,63</i>	<i>126,6 ± 1,66</i>	<i>2,04</i>	<i>&gt;0.05</i>
5	<i>150 gr koptokni uloqtirish (sm)</i>	19-n	<i>26,7 ± 0,51</i>	<i>22,5 ± 0,34</i>	<i>1,79</i>	<i>&gt;0.05</i>
			<i>23,2 ± 0,49</i>	<i>18,8 ± 0,33</i>	<i>0,94</i>	<i>&gt;0.05</i>

**Xulosa**

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish hamda amaliyotda kurashchilarning tayyorgarligi jarayonini kuzatish natijasida olib borilayotgan mashg‘ulotlarda aynan musobaqa faoliyatiga xos bo‘lgan taktik harakatlarini rivojlantirishga yetarli darajada e‘tibor berilmasligi hamda tayyorgarlik davrining bosqichlarida mana shunday harakatlarga oid metodik jihatdan yondoshuvning yetishmasligi yosh sportchilarda hujum va himoyadagi taktik harakatlarni rivojlantirishni samarali tashkil etish imkonini bermay kelayotganligi ma’lum bo‘ldi.

Kurash mashg‘ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so‘ng, kurashchilarning mashg‘ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida kurashchilarning hujum va himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqorida tavsiya etilgan ro‘yxatdagi taktik usullarni musobaqa usulidagi mashg‘ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o‘zlashtirish, mustaxkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. A.I Talipdjanov Yuqori malakali kurashchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2012. 366 b.
2. A. Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Farg‘ona -2016 372 b.
3. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati, Toshkent-2014

## TILNING FONETIK TUZILISHI, UNDOSHLARNING TASNIFI VA QOZOQ TILI BILAN O‘XSHASHLIKLARI

**Kukanova Guli Nurgali qizi**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Qozoq tili va adabiyot yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Ilmiy yetakchisi: **Shafqorov Abdishukur Musaevich**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘zbek tili ba qozoq tilidagi undosh harflarning tasnifi va o‘xshashliklari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Fonetika, nutq, artikulyasiya, palatalizasiya, tovush, undosh, tasnif.

**Annotation:** this article provides information on the classification and similarities of Uzbek and Kazakh consonant letters.

**Keywords:** Phonetics, speech, articulation, palatalization, sound, consonant, classification, explosive, sonorous sounds, voiced and unvoiced sounds.

*Navoiy she‘rining guli,*

*Kechmish zamonlarning tirik guvohi,*

*O‘zbek tili, o‘zbek tili!*

*ROUF PARFI*

### **Tilning fonetik tuzilishi, undoshlarning tasnifi va qozoq tili bilan o‘xshashliklari**

Fonetika tilshunoslik fanining mustaqil bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda nutq tovushlari o‘rganiladi. Nutq tovushlari tilimizning xomashyosi, uning moddiy boyligi hisoblanadi, zotan, inson tili tovushlar orqali mavjuddir. Tilning barcha birliklari oddiy fonema (bir-biridan farqlanuvchi tovush)lardan boshlab matngacha ana shu tovushlar yordamida o‘z ifodasini topadi. Fonetikaning asosiy predmetini tovushlarning akustik va artikulyasion xarakteristikasi tashkil etadi. Artikulyasiya-nutq a‘zolarining tovush

hosil qilish vaqtidagi harakati va holati hisoblanadi. Tovush hosil qilishda hamma nutq organlari bir xil qatnashmaydi. Ba’zi organlar faol qatnashsa, ba’ilari passib ishtirok etadi. Shu sabab ham undoshlarni ikki hil artikulyasiya o‘rniga ko‘ra va artikulyasiya usuliga ko‘ra tasnif qilamiz. Hosil bo‘lish o‘rnidan havo oqimining portlab yoki sirg‘alib o‘tishi artikulyasiya usulu deb ataladi.

Undosh tovushlar - og‘iz va bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida turli to‘siqlarga uchrab paydo bo‘ladigan, tarkibi ovoz va shovqindan iborat tovushlar. Ular talaffuz hilganimizda havo oqimi sirg‘alib yoki portlab chiqadi. Bu havo oqimi un paychalarini titratib yoki titratmay o‘tadi. Natijada turli jihatdan birbiridan farqli **Undosh** tovushlar hosil bo‘ladi. Dunyodagi har bir til o‘ziga xos undoshlar tizimiga ega. Tildagi undoshlar tizimi konsonantizm (lot. consonans — undosh tovush) deyiladi. Undosh tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida Undosh tovushlar soni 24 ta bo‘lsa, boshqa tillarda masalan (qozoq tilida 25 ta). Bu miqdor rus tilida 34 tani, fin tilida 14 tani tashkil etadi.

Undosh tovushlarni tasnif qiladigan bo‘lsak, ular 4 qil uslubga ko‘ra: 1) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra; 2) hosil bo‘lish o‘rniga (nutq a‘zolarining ishtirokiga ko‘ra; 3) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra; 4) palatalizatsiyaga (tilning qattiq tanglay tomon ko‘tarilishiga) ko‘ra. Ushbu tasniflarni hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi 24 ta [b, v, g, d, j (jurnal), j (jo‘ja), d, y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, s, ch, sh, q, g‘, h] Undosh tovushlar misolida ko‘rib chiqish mumkin.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra, Undosh tovushlar 2 asosiy turga bo‘linadi: sonorlar va shovqinlilar. Sonorlar (m, n, ng, l, r) tarkibida shovqinga nisbatan ovoz ustunlik qiladi. Shovqinlilar esa faqat shovqindan yoki shovqinga ovoz qo‘shilishidan qosil bo‘ladigan **Undosh** tovushlardir. Ovozning qatnashishi yoki qatnashmasligiga ko‘ra, shovqinli undoshlar ham 2 ga: jarangli undoshlar va jarangsiz undoshlarga bo‘linadi. Jarangli undoshlar (b, v, g, d, z, y) shovqinga ovoz qo‘shilgan undoshlardir. Jarangsiz undoshlar esa (p, f, k, t, s, sh,) faqat shovqinning o‘zidan iborat bo‘ladi.

Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra, Undosh tovushlar 3 ga bo‘linadi: lab undoshlari lab-lab undoshlari (p, b, m) va lab-tish undoshlari (v, f) dan iborat; til undoshlari — til oldi

(b, p, d, t), til orqa (k, g), til o‘rta (y) va chuqur til orqa (q, g‘, x) undoshlaridan iborat; bo‘g‘iz undoshi (h).

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra, Undosh tovushlar 4 ga bo‘linadi; portlovchilar — nutq a‘zolarining jipslashuvi va havo oqimi bosimining shu a‘zolari yorib o‘tishi natijasida hosil bo‘ladigan( p, b, t, d, k, g) kabi undoshlar; sirg‘aluvchilar — nutq a‘zolari bir biriga yaqinlashib, havo oqimi shu tor oraliqdan sirg‘alib chiqishi natijasida hosil bo‘ladigan( v, f, z, s, j, sh, x, g‘ )kabi undoshlar; titroq tovush — til uchining yuqori milkka tegib-tegmay titrashidan hosil bo‘lgan r undoshi; affrikata — portlovchi tovush bilan sirg‘aluvchi tovushning yaxlit bitta tovush sifatida talaffuz qilinishidan hosil bo‘lgan( ch(t+sh), j(d+j), s(t+s)) tovushlardir.

Qozoq tilini oladigan bo‘lsak 25 undoshlar bor.Ular ( б, в, г, ғ, д, ж, з, й, к, қ, л, м, н, ң, п, р, с, т, х, ф, х, ц, ч, ш, у,) harflaridan iboratdir va bu yerdagi y(u) harfi joyi kelganda unliga ham aylanib ketadi.Shular ishidan h undoshi ayrim sharq so‘zlarida (в, ф, х, ц, ч) undoshlari asosida rus tili orqali qozoq tiliga kirgan. Undosh tovushlar (Consonantism). Undosh tovushlar faqat bo‘g‘in yoki bo‘g‘in va unli tovush yordamida hosil bo‘lmaydigan tovushlardir. Undosh tovushlarni gapirganda to‘siq bo‘lmaydigan halqumdagi fonatsiya havosi og‘iz bo‘shlig‘iga yuqori tezlikda kiradi. Undosh tovushlar - havo chiqarilmaganda hosil bo‘ladigan va aytilishida to‘siq bo‘ladigan tovushlar. Undosh tovushlar nutq a‘zolarining bir-biriga tegishi yoki to‘liq tegishi natijasida hosil bo‘ladi. Undosh tovushlarning asosiy belgilari:

- undoshlar o‘rni - og‘iz va halqum bo‘shliqlari;

- jarangsiz undoshlarda umuman tovush eshitilmaydi, ўнда қisman,ўндіде esa past;

- undosh qat'iy va ўнда ichki sifati sof bolib, ўндіде nutq azolarining (til, lab, jag) yaqinlashishi, ozgarishi, olchamlarini ozgartirishi halqum orqali kelayotgan havoga tosiq bola olmaydi;

- jimgina qattiq va ohangni ko‘tarish, cho‘zish, o‘zgartirish umuman mumkin emas, hindular esa, aksincha, ohangni ko‘tarish, cho‘zish, o‘zgartirishi mumkin;

- undosh tovushlarning ovoz sifatida aks-sado yo‘q;



- Undoshlar birgina soʻzda boʻgʻin hosil qila olmaydi.

Undosh tovushlar nisbatiga qarab uchga boʻlinadi:

Қатаң дауыссыздыр (kar undoshlar) - tovush paychalarining ishtirok etmaydigan, faqat boʻgʻindan olingan undosh tovushlar: н, к,қ, т, с, ф, х, ц, һ, ш;

Ұяң дауыссыздыр (zvonkie soglasnye) - tovush paychalarining ishtirokida hosil boʻlgan undosh va undoshga teng boʻlgan undoshlar: в, б, г, ғ, д, ж;

Үнді дауыссыздыр (sonor undoshlari) - tovush paychalarining ishtirokidagi undoshga nisbatan aniqroq aytiladigan undoshlar: п, л, м, н, ң, у;

Ikki labning tegishidan hosil bolgan М б н undoshlari lab undoshlari deyiladi.

Yupqa undoshlar (yumshoq undoshlar) — soʻz tarkibidagi undosh tovushlarning qoʻshni ingichka unlilar bilan (siz — siz, tuz — toʻgʻri) uygʻunligi. Yoʻgʻon undoshlar (qattiq undoshlar) tilning oʻrta qismi baland koʻtarilmasligi tufayli past jarangli, qattiq aytiladigan undoshlardir. Undosh tovushlarning qalinlashuvi undoshning qattiqligi - qoʻshni unli tovush taʼsirida undoshlarning qalin talaffuzi. Masalan: ap, on, tap, bar odam. Doim qalin va tanlanma boʻgʻinlarda talaffuz qilinadigan undoshlar: k(q), f(gʻ). Masalan: qar, saq, fana.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U.Sanaqulov, A.Turabov — «Tilshunoslik nazariyasi» Samarqand-2019 yil
2. A.Reformatskiy «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» 1980 yil
3. «Тіл білімі терминдер түсіндірме сөздігі» -Алматы 2005 жыл
4. У, Байқабылов, Д. Дүйсебаева «Қазіргі қазақ әдеби тілі»-Ташкент 2013

## CHAQALOQLAR O‘SISHI VA RIVOJLANISHIDAGI FIZIOLOGIK JARAYONLAR

**Ro‘zimurodov Iskandar Zafar o‘g‘li**

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 4-bosqich talabasi

Email: [iskandarrozimurodov@gmail.com](mailto:iskandarrozimurodov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda bolalar parvarishi va dastlabki rivojlanishida profilaktika choralari va bola rivojlanishida onaning o‘rni bilan bog‘liq xolatlarni ilmiy o‘rganib, taxlil qilib hayotimizda tog‘ri xulosalarni tadbiq qiluvchi uslublar haqida fikir mulohaza yuritimiz.

**Kalit so‘zlar:** chaqaloq, fiziologik jarayonlar, uyqu, quyosh nuri, vitaminlar.

**Annotation:** In this article, we will scientifically study and analyze situations related to preventive measures in child care and early development, and the role of the mother in child development, and reflect on the methods of applying correct conclusions in our lives.

**Key words:** baby, physiological processes, sleep, sunlight, vitamins.

**Аннотация:** В этой статье мы подробно рассмотрим профилактические меры в уходе за детьми и раннем развитии, а также методы, которые делают правильные выводы в нашей жизни путем научного изучения и анализа ситуаций, связанных с ролью матери в развитии ребенка.

**Ключевые слова:** ребенок, физиологические процессы, сон, солнечный свет, витамины.

Bo‘lajak onalarimiz hamisha shifokorlar nazorati va ularning malakali tavsiyalari asosida farzandlarini dunyoga keltirmoqda. Bularning barchasi kelajak avlod sihat-salomatligi uchun qilinayotgan say harakatlardir.

Dunyoga kelgan chaqaloq ona organizimdan ajrab o‘zi mustaqil hayot kechirishni boshlaydi. Tashqi muhit omillariga moslashish adaptatsiya jarayoni boshlanadi. Shunday damlarda yosh onalarimiz amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalar mavjud. “Bola birinchi oylarda sutkasiga o‘rtacha 16-18 soat uxlaydi. Ko‘pgina oilalarda bolani uyqu vaqtida beshikka solishadi. Bubolaning harakatiga xalaqit beradi. Harakat suyak-mushak tizimni rivojlantiribgina qolmay, butun organizimni ham tetiklashtiradi”<sup>3</sup>.

Uglevodlar ko‘p miqdorda bo‘ladi. Ular tarkibida sutni normal hazm bo‘lishiga yordam beruvchi alohida moddalar laktoza mavjud. Uning tarkibidagi vitaminlar, mineral tuzlar o‘sayotgan va rivojlanyotgan organizm ehtiyojini to‘la qonli ta‘minlaydi. Shunindek tarkibida kalsiy va fosfor mikroelementlari mavjud bo‘lganligi sabab, ona suti bilan oziqlanga bolada raxit kasalikka moyillik boshqa bolalarga nisbatan kamroq bo‘ladi. Ona suti tarkibida rux, kobalt, temir moddalari ham yetarli bo‘ladi. Shuning uchun ona suti bilan oziqlanish anemiya ya’ni kamqonlik kasaligining oldini olishga yordam beradi. “Olti oylikkacha ovqatlantirishning eng qulay usuli bu ko‘krak suti bilan ovqatlantirishdir. Tug‘ilgandan so‘ng bola birinchi 15-30 daqiqadan so‘ng ko‘krak ustiga qo‘yiladi. Onada tug‘ruqdan keyin birinchi kunlarda ko‘krak bezlaridan og‘iz suti keladi. Og‘iz suti chaqaloq uchun juda foydalidir. U engil hazm bo‘luvchi oqsil, uglevod, kerakli mikroelementlar va suvdan iborat. Ko‘krak sutining afzalligi shundaki, bolani vitaminlar va oziqlantiruvchi moddalar bilan qoniqtiradi. Bolani o‘zi qoniqqancha ko‘krak bilan emizish kerak. Tungi emizish oralig‘i 4-6 soatdan oshmasligi lozim”<sup>4</sup>.

Bundan tashqari shifokor ko‘rsatmasiga binoan qo‘shimqcha ovqatlar sifatida bolalar bo‘tqasi bolaning 3 oylidan boshlab vazniga, Umumiy holatiga va ona sutiga bo‘lgan ehtiyojiga qarab tavsiya etiladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, chaqaloqlarning dastlabki kichik chilla vaqti o‘tgach chaqaloqqa 2-3 tomchi qaynatilga suv berish ham tavsiya etiladi.

Bu chaqaloqning suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va orabizmning yaxshi rivojlanishiga yordam beradi. Qo‘shimcha ovqatlar sifatida olmalı pure, banan

<sup>3</sup> <https://avitsenna.uz/kichkintoy-parvarishi-1/>

<sup>4</sup> <https://avitsenna.uz/kichkintoy-parvarishi-1/>

bo‘tqasini berish ham tavsiya etilmoqda. Bundan tashqari 6 oylik chaqaloqlarga suyuq taomlarning suvi va kartoshkasini botqa shaklida berish tavsiya etiladi. Chaqaloqlarning vaqtida uxlab, vaqtida uyg‘onishlari uchun qulay sharoit yaratish tavsiya etiladi. Uxlayotgan chaqaloqlarni bezovta qilish, ularni erkalash qat’ian taqiqlanadi. Chunki bu bolaning psixikasiga ta’sir qilib injiq bo‘lishiga va uyqu siklining to‘liq bo‘lmasligiga olib keladi. Bola uyg‘oqligida uni ko‘ruv, eshtuv analizatorlariga ta’sir ko‘rsatish ya’ni bola bilan suhbatlashish, har xil rangli o‘yinchoqlarni ko‘rsatish talab etiladi. Yangi tug‘ulgan chaqaloqlar 22-21 soat uxlab dam olishi kerak bir kunda. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning uyqu vaqti 18-17 soat, 4 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar 15 soat, 8 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar 10-12 soat, 13 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan o‘smir yoshdagi bolalarning talab darajasiga qarab uyqu vaqti 9-8 soat, 18 yoshdan katta bo‘lganlar 7 soat uxlash tavsiya etiladi. Bolalarni chiniqtirish: suvda, quyosh nuri bilan chiniqtirish. Suvda chiniqtirish- bolalarni va chaqaloqlarni suvda cho‘miltirish muhim gigienik muolaja. Bolaga birinchi gigienik vanna kindik qoldig‘i tushishi va kindik yarasi bitishidan 1-2 kun o‘tgach qilinadi. Bolani 6 oygacha kunda, 6 oydan 12 oygacha kun ora, 2-3 yoshligida haftasiga 2 marta, 4-5 yoshdan boshlab haftasiga bir marta cho‘miltirish kerak. Olti oygacha bo‘lgan Bolani cho‘miltirishda suvning harorati 36-36,5 bo‘lishi kerak. Bola bir yoshgacha 5-7 minut, 2 yoshda 8- 10 minut, 3 yoshdan boshlab 10-15 minut davomida cho‘miltiriladi. Yuvuntirish jarayonida yosh onalarimiz bolalar sovunidan foydalanishi tavsiya etiladi. Buning boisi ushbu sovunda bolalar terisi uchun foydali bo‘lgan lionilin moddasi bor. Bolalar tungi uyqudan 1-1,5 soat oldin muayyan bir vaqtda ya’ni ovqatlanishdan 1 soat o‘tqizib yuvintirish kerak. Bolalarning yuvunish anjomlari ham alohida bo‘lmog‘I lozim. yuvunish anjomlari 0,5% xloramin eritmasida tozalangan bo‘lishi kerak, yuvintirishdan oldin esa yaxshilab suvda chayish tavsiya qilinadi.

Bolani quyosh nuri bilan toblatish- buni ehtiyotlik bilan qilish tavsiya etiladi. Chunki tezda bola organizmi qizib oftob urushi mumkun. Bolani quyoshda chiniqtirish uchun ertalab soat 6 dan 10 gacha, kechki soat 17 dan 19 gacha bo‘lgan quyosh nuriga olib chiqish tavsiya etiladi. Qolgan vaqtlarda Bolani tashqariga olib chiqish mumkun

emas, chunki u vaqtdagi quyosh nurlari bola organizmi uchun zararli hisoblanadi. Quyosh nuri bilan to‘yinib bola organizmning D vitamini bo‘lgan ehtiyojini to‘ldirishga yordam beradi. 3. Kiyimning gigiyenasi. Ko‘pchilik yosh onalarimiz farzand kiyimlariga befarq bo‘lib qoladi. Bu juda ham noto‘g‘ri. Avvalam bor bolalar asosan paxta matosidan tayyorlangan, sintetik bo‘lmagan kiyimlar kiyishi kerak. Chunki sintetik kiyimlar bola terisiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, bolada terlash holatlarini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari kiygan kiyimlari ham havo muhitiga mos bo‘lishi, bola o‘zini qulay his qilishi, sovuq qolmasligi kerak. Ushbu qoidalarga rioya qilgan onalar farzandlarining yaxshi rivojlanishiga shart- sharoit yaratib beradi. Quyidagi ishlarni amalga oshirish davomida bolalarni, chaqaloqlarni tibbiy ko‘rikdan ham o‘tqazish lozim. Chunki bola rivojlanishdagi o‘zgarishlarni bilish, nojo‘ya ta‘sirlarni oldini olish lozim.

Xulosa, qilib aytganda kelajak avlodlarimizning sog‘ligi ularni yaxshi rivojlanishi, ulardagi turli yuqumli kasalliklar, irsiy kasalliklarni oldini olish, ularni vaqida davolash biz shifokorlarning va farzandning ota-onasiga bog‘liqdir. Bolani dastlabki 3 yoshgacha bo‘lgan davrda shifokor tavsiyalarini bajargan ota-onalar farzandining keyingi yoshlarida yaxshi yashashiga va rivojlanishiga o‘z xissalarini qo‘shgan bo‘lishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tibbiyot ensiklopediyasi. Z.Solixovajayeva va boshqalar. Taxriri: Sharq 2016-y. 640-bet.
2. <https://gujm.uz> sayti ma‘lumotlari.
3. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.wikipediya](http://www.wikipediya)
6. <https://avitsenna.uz/kichkintoy-parvarishi-1/>

**UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY  
RIVOJLANISHINI YENGIL ATLETIKA SPORT TURI ORQALI  
NAZORAT QILISH USULLARI**

**Sharipov Arabboy Shermirza o'g'li,  
Sobirova Hilola Hamidullayevna**

Namangan Davlat Universiteti magistrantlari,

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada yosh yengil atletikachilarni o'quv trenirovka mashg'ulotlari ta'sirida jismoniy rivojlanishi, o'zgarishi haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy rivojlanish, Morfologiya, antropometriya, yengil atletika to'garaklari, sport o'yinlari.

**METHODS OF MONITORING THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF  
HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH THE SPORT OF ATHLETICS**

**Annotation:** This scientific article provides theoretical information and practical recommendations on the changes in the physical development of young athletics players as a result of training sessions.

**Key words:** Physical Development, Morphology, anthropometry, athletics clubs, Sports Games.

Jamiyat a'zosining jismoniy rivojlanganligiga mavjud ijtimoiy tuzum, undagi muhit, ijtimoiy sharoitning ta'siri muhim ro'l o'ynaganligi hozirgi kunda o'z isbotini topgan. Azal-azaldan insonlar o'z tanasining rivojlanganligi haqida bosh qotirib o'z davrning mavjud sharoiti, muhiti, nazariy bilimlari zahirasiga tayanganlar.

Jismoniy rivojlanishni tekshirish gavda qismlarining shakli, hajmi va proporsiyalari haqida organizimning ba'zi bir imkoniyatlarini aniqlab beradi. Ko'p

hollarda jismoniy rivojlanishning yaxshi davom etishi, jismoniy tarbiya va sport bilan chambarchas bog‘liqdir. Albatta bu faktlarga tayanib hukumatimiz aholimiz hamda yosh avlodni o‘shib rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya va sportga juda ham katta e’tibor bermoqda. Bunga misol qilib Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmoni “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish to‘g‘risida”<sup>5</sup> gi farmonlarini ko‘rsatish mumkin. Yosh avlodni jismoniy rivojlanishiga jismoniy tarbiya va sportni ta’sirini o‘shirish uchun ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va yana olib borilmoqda. Biz ham ushbu tadqiqot orqali yosh yengil atletikachilarni jismoniy rivojlanishlarini, yengil atletika trenirovkasi mashg‘ulotlarining ta’sirini aniqlashga urindik. Ko‘p hollarda sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishga e’tibor kuchli bo‘lsada sportchi yoshlarni o‘shib rivojlanishiga kam ahamiyat qaratiladi. Ayni vaqtda sportdagi natija va yosh sportchilar jismoniy rivojlanishini nazoratga olish dolzarb masala deb qaramoqdamiz.

Jismoniy rivojlanganlik darajasi, tanimiz a’zolarini o‘lchovi (antropometriyasi) ko‘rsatkichlariga qarab aniqlanadi. O‘lchamlarni o‘tkazish, uning metodikasiga oid nazariy bilim va amaliy malakalar asosan “Odam morfologiyasi”, “Biomexanika”, “Davolash jismoniy madaniyati”, “Sport fiziologiyasi” va boshqa qator fanlar orqali o‘qitiladi. **Ko‘krak qafasining aylanasi** asosan **uch holatda**:

- 1) to‘liq (maksimal) nafas olganda;
- 2) to‘liq nafas chiqargandan so‘ng;
- 3) nafas olib bo‘lgandan so‘ng, nafas chiqarishni boshlashdan oldingi harakatsiz turgan (pauza) holatdagi vaqtida, o‘lcham olish lentasi bilan o‘lchanadi.

Lenta qovurg‘alarning pastki burchaklaridan o‘tishi - oldindan o‘lchanganida erkaklarniki ko‘krakning o‘rtasidan, ayollarniki esa ko‘krak bezlari oldidan o‘tadi. O‘lchanuvchi ikki qo‘lini yuqori ko‘tarib turishi kerak bo‘ladi.

Tanamiz massasi ko‘rsatkichlarining yuqoriligi jismoniy rivojlanganligimizning yaxshi sifati deb qaraladi. Tana va uning a’zolari qanchalik darajada baquvvat, pishshik, kuchi ufrif turganligi ko‘zga tashlansa uni shunchalar jismonan rivojlangan deb qarashlari haqida o‘qidingiz. Massaning

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmoni. Mabuot.uz

kattaligi, basavlatlik (jonli til bilan aytganda) jismoniy rivojlanganlikni ko‘rsatkichi emas. Tananing umumiy vazni - skeletning vazni, muskullar, yog‘ to‘qimalari, ichki a‘zolar, teri kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Ularning har birining nisbiy miqdori (%) yosh o‘tgan sari doimiy o‘zgarishdadir<sup>6</sup>.

Jismoniy rivojlanganlikni o‘lchashda uning bo‘laklarini - qismlarini o‘zaro mutanosibliyi ya‘ni proporsiyasi deb nomlanadigan o‘lchovga duch kelamiz. Qoida tarzida tanamiz proporsiyasi unin yuqori qismi (boshi va bo‘yni) kesimining katta kichikligi, tanasi, tayanish va suyanish a‘zolarining alohida bo‘lagi (segmentlari)ni tananing umumiy uzunligiga yoki gavdaning umumiy o‘lchamiga nisbatan yoki ayrim segmentlari o‘lchamining foiziga nisbatan tasnifi tushuniladi.

Tanamizni rivojlanganligini baholashning amaliyotda eng keng tarqalgani uslubiyotlaridan biri indekslash metodidir. Bunda eng sodda hisoblashlar yordamida tanamiz a‘zolari bo‘laklarini o‘zaro nisbati tasnif qilish imkoniyatini beradi. Kichik o‘lchamning kattaligi kattaning foizida ifodalanadi.

Turli indekslarning qo‘shilmasidan inson tanasi proporsiyasining uch xil asosiy guruhga ajralib chiqadi:

- I. oyoqlari uzun, tanasi qisqa va ingichkalar
- II. oyoqlari kalta, uzun va keng tanaga ega bo‘lganlar .
- III. tanasining o‘lchami o‘rtachalar .

Qayd qilingan tana proporsiyasiga oid bilimlar bo‘lajak sport mutaxassisiga jismoniy mashqlarni mashg‘ulotlar uchun tanlashda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik, sog‘lomlashtirish maqsadidagi yoki sport mahoratini oirishni maqsad qilib sport turlarini tanlashda adashmaslikni oldini olish uchun qo‘l keladi.

Hozirgi kunda o‘lchovlar o‘lchanayotgan a‘zoga qo‘l tekkazish hamda qo‘l tekkizmay o‘lchash bilan o‘tkaziladi. Qo‘l tekkazish bilan jismoniy rivojlanganlik o‘lchovlari uch xil ko‘rinishda: tananing uzunasi, ko‘ndalangli hamda tananing aylanasi o‘lchash orqali rivojlanganlik baholanadi. Bu o‘lchamlar rivojlanganlikning eng zaruriy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Kuzatishlar insonning jismoniy rivojlanishi 25 yoshga borib susayishi, ayrimlarini esa, masalan,

<sup>6</sup> A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b



bo‘yiga o‘shishning to‘xtashini ko‘rsatdi. Bu organlar va to‘qimalarni o‘zgarishdan to‘xtadi degani emas, 25 yoshga borib shakllanib bo‘ldi degani xolos.

Organizimni keyingi jismoniy rivojlanishi **ikki yo‘nalishda** davom etadi:

**1). jismoniy faollikni ta‘sir orqali 2). kam harakatlanish**

Tananing yog‘ bosishi, to‘lishib ketish, qorin mushaklari (to‘g‘ri, ko‘ndalang va qiya)ni bo‘shashishi, hazm qilish organlari va boshqa a‘zolarning o‘lchamini, hajmini kattalashishi, yo‘g‘onlashishi hisobiga ular organizmda joylashgan joyini “tark” etishlariga sabab bo‘ladi. Masalan, medaning to‘yib va ko‘p ovqatlanish hisobiga hajmini kattalashishi boshqa hazm qilish organlarini joylashishini o‘zgartiradi (qorin osilib qoladi), oqibati tananing ko‘rinishini o‘zgarishini yuzaga keltiradi. Mukammal har tomonlama jismonan shakllangan qaddi-qomat egasi bo‘lish faqat individning o‘zigagina bog‘liq.

Biz mazkur tadqiqotimizni Namangan viloyatining Chust tumanidagi Sport maktabida “Yengil atletika” sport turi bilan shu yilning yanvar oyidan shug‘illana boshlagan 10 nafar o‘gil bolalarni tadqiqot guruhi sifatida, yana shu yoshdagi Chust tumanidagi 1–sonli umumta‘lim maktabidan 10 nafar nazorat guruhida tadqiqot ishini 6 oy davomida olib borish orqali yosh yengil atletikachilarning jismoniy rivojlanishiga yengil atletika trenirovkasi mashg‘ulotlari ta‘sirini o‘rganish jarayonida yakuniy natijalarni quydagi jadvalda keltirdik.

**Yosh yengil atletikachilarning jismoniy rivojlanishiga yengil atletika trenirovkasi mashg‘ulotlari ta‘sirini o‘rganish jarayoni yakuniy natijalari**

No	Antropometrik ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	Tajriba $x \pm m$	Nazorat $x \pm m$	T	P
1	Bo‘yi	O‘	10	166.7±4.9	153.4±2.4	7.8	>0.01
2	Vazni	O‘	10	52.5±4.5	43.7±1.4	4.44	>0.01
3	O‘tirgan holatdagi gavda uzunligi	O‘	10	85±2.8	76.1±1.4	8.9	>0.01
4	Ko‘krak aylanasi	O‘	10	84.8±4.2	73.8±1.7	7.8	>0.01

**Xulosa**

Mazkur tadqiqotni olib borishda sport mashg‘ulotlari va ular orqali hal qilinadigan vazifalar qatorida yosh yengil atletikachilarni jismoniy rivojlanishini doimiy nazoratga olish zaruriyati borligi va bunga ko‘p soha mutaxassislari e‘tiborsiz bo‘layotgani sezilib qolmoqda.

Ushbu e'tiborsizlik natijasida yosh sportchilarni o'sib rivojlanishi uchun sarflanishi zarur bo'lgan komponentlarni boshqa vazifalar uchun sarf bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Natijada yoshlarni o'sishi va rivojlanishi birmuncha susayadi. Shunday muammolarni hal etish uchun yoshlarni sportga jalb qilgandan so'ng ularga tegishli bo'lgan jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini doimiy nazoratga olgan holga mashg'ulot mikrosikllarini to'g'irlash yoki ayrim o'zgartirishlar kiritish talabi yuzaga keladi. Shundagina biz yosh sportchilarni ham yuqori jismoniy tayyorgarlikga ham jismoniy rivojlanishini yaxshilashga erishamiz. Boshqacha aytganda son va sifat ko'rsatkichlarini mutanosib qilib rivojlantiramiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog'risida” 2020-yil 24-yanvardagi 5924- sonli farmoni. Mabuot.uz
2. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b
3. F.A.Kerimov “ Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. “Zar qalam” -2004.-447.b.
4. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Darslik – Toshkent 2014-yil 284 b.

**NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA  
TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA  
BOSHQARUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**Xusanova Jumagul Sayib qizi**

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti

**ANNOTATSIYA**

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, tashkilotda olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarini boshqarishda yuqori sifat bosqichiga olib chiqishda rahbar xodimlarga qanday munosabatda bo'lishi, o'z faoliyati jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, rahbar, boshqaruv, rivojlantirish, samaradorlik, faollik, tarbiyachi, ta'lim, tarbiya.

**DEVELOPMENT OF MANAGEMENT ACTIVITY IN THE  
ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN NON-STATE  
PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

**ANNOTATION**

There was a talk about the organization of non-governmental preschool education organizations, how to treat managers in order to bring them to a higher level of quality in the management of the educational process in the organization, what to pay attention to in their activities.

**Keywords:** preschool education organization, leader, management, development, efficiency, activity, educator, education, upbringing.

Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda katta ahamiyatga ega bo'lgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Barpo etilayotgan yangi bozor munosabatlariga asoslangan demokratik, huquqiy

davlat, fuqarolik jamiyati insonlarning jamiyat hayotiga, mehnatga bo‘lgan munosabatlarini tubdan o‘zgartirishini talab etadi. Endilikda har bir kishi o‘zgalarga emas, balki shaxsan o‘zining imkoniyatlariga, qobiliyati va iste’dodiga tayanishi, shulardan kelib chiqib yashashi kerak. Maktabgacha ta’lim junladan, Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimida ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishga hamda mazkur jarayon subyektlari (xodimlar, tarbiyalanuvchilar va ota-onalar)ning ehtiyojlari va manfaatlarining uyg‘unligi asosida belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi tashkil etiladigan faoliyat jarayoni hisoblangan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish - mavjud imkoniyatlardan (vujudga keluvchi turli vaziyatlar, subyektlarning boshlang‘ich tushunchalari, ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlari, ilmiy- metodik ta’minot va h.k.) oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik jarayon tashkilotchilari hisoblangan rahbarlar va tarbiyachilar belgilangan maqsadlarga erishishda tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyatlarini, shaxsiy xislatlarini, shuningdek pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o‘rganishlari va shular asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilarning faolligini ta’minlash va takomillashtirish hamda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri pedagog xodimlarning faoliyatini ilmiy asosda tashkil etilishidir.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tarbiyachilar faoliyatining ilmiyligi - yangiliklarini izlash, o‘rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma’lumotlardan foydalanish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o‘zlashtirish, shular qatori mashg‘ulotlar jarayonlarida innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning samaradorligi - bu boshqaruv qonuniyatlari, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati asosida tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi.

V.V.Sergeyeva ning fikriga ko’ra:

- ❖ samaradorlikni ta’minlash uchun turli usullar va metodlarni qo’llash;
- ❖ nazoratni obyektiv amalga oshirish va nazorat natijalarini tahlil qilish;
- ❖ xatolarni o’z vaqtida tuzatish;
- ❖ tekshiruvchining kompetentligi yo’nalishidagi talablarni bajarilishi zarur.

Shunday ekan, Nodavlat ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta’minlashda ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni muntazam tadqiq qilish, subyektlar faoliyatini nazorat qilib, nazorat natijalarini tahlil qilish va obyektiv baholash asosida qo’llab-quvvatlangan, ma’qullangan, shuningdek, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarchilar o’rtasida yangi va ishonchli axborotlar almashinuvini ta’minlovchi tizimni joriy etish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko’rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3276-sonli qarori
2. Сергей В .В. Управление образовательными системами. - М.: Новая школа, 2000. - С. 27
3. Valijonov R., Qobulov O., Ergashev A. Menejment asoslari. - Toshkent: Sharq, 2012 - 207 b.

## МІРЖАҚЫП ДУЛАТОВТЫҢ -ШЫҒАРМАШЫЛЫҚ ЖОЛЫ

Куканова Гули Нурғалиевна

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педогогика институты

Қазақ тілі және әдебиеті бағытының 1-курс студенті.

Ғылыми жетекшісі: **Жандос Абдазимович Байзақов**

**АННОТАЦИЯ:** Қазақтың аса көрнекті ағартушысы, қоғам қайраткері, жалынды ақын, жазушы, көсемсөз шебері, сөзге жүйрік, әрқашан теңсіздік жақтаушысы. Көзі ашық, көкірегі ояу ұлт жанкүйері. Ешкімге ұқсамайтын творчестволар иегері

**КІЛТТІ СӨЗДЕР:** Мұсылманша хат тану, білімсіздіктен арылу, озық ой иесі, әйел теңсіздігі, білімге құмар, демократиялық партия, абақты ауруханасы.

**ANNOTATION:** An outstanding Kazakh educator, public figure, an ardent poet, writer, foreword master, quick to speak, always a proponent of inequality. An open-eyed, open-hearted fan of the nation, the owner of unique creations.

**KEYWORDS:** Muslim letter recognition, get rid of ignorance, advanced thinking, female inequality, passion for knowledge, democratic party, prison hospital.

Көзіңді аш, оян қазақ көтер басты,  
Өткізбей қараңғыды бекер жасты.  
Жер кетті, дін нашарлап, хал һараб боп,  
Қазағым, енді жату жарамас-ты.

Міржақып Дулатов

Міржақып Дулатов 1885 жылы 25 қараша айында Қостанай облысының Жангелді ауданына қарасты Қызбел ауылында өмір сүрген. Әкесі - Дулат ауылында аты шыққын шебер кісі болған ол мәсі, етік тіккен. Анасы - Дәмеш ойын тойдың базары, әнші кісі болған. Міржақып әуелі ауыл мектебінен 2 жыл хат

таниды.1897 жылы Торғай қаласындағы орыс-қазақ мектебіне түсіп, Мұхан мұғалімнен дәріс алады.Ол оқуды 1902 жылы жақсы бағалар мен түгетеді. Міржақып анасынан екі жасында,әкесінен он екі жасында айырылып,ағасы Асқардың қолында тәрбиеленеді.Ағасы оның білімді азамат болып өсүінде,хат танып білім алуына ерекше көңіл аударады. Міржақып 1904 жылы сол кезде оқығандардың бас қосатын орталығы- Омбы қаласына жол жүреді.Ол жерде Ахмет Байтұрсыновпен жүздесіп,оны мен бірге ұстазық жұмыстарын бірге атқарады.1905 жылы Міржақып Ахмет Байтұрсыновпен бірге Қарқаралыдағы саяси-бұқаралық жұмыстарға қатысады.1905 жылы патша өкіметіне қазақ халқының атынан петиция жазушылырдың қатарында болады.Ол көптеген шығармалар,өлең жолдарын өрбітүмен бірқатар роман жазумен да айналысады.ХХғасырдың басында алғаш рет БАХЫТСЫЗ ЖАМАЛІ романын жазады.Роман қазақ әдебиетіндегі тұңғыш жетістік болып есептеледі.Роман көркемдік жағынан ғана емес,тіл,форма жағынан да біраз сара жол болғаны сөзсіз.Роман алғаш жарық көргеннен бастап қазақ әйелдерінің бас бостандығының жаршысына айналды.1910 жылы алғашқы роман басылып шықты.Роман қолма қол болып, оқырмандардың көңілінен шықты.Саумалкөл маңында отырған Сәрсенбай ауылына ұлықтар келіп,ауыл абыр-сабыр күйге түседі.Осы бір кезде байдың шаңырағында шыр етіп сәби дүниеге келіп,Сәрсенбай қызды болады.Оның есімін Жамал қояды.Осы сәттен бастап Роман сюжеттері осылайша өрби бастайды.Романда әйел теңсіздігі сөз болады. Яғни Ғали мен Жамалдың арасындағы махаббат мәселесі арқылы,айел теңсіздігі сөз болады.Бұл шығарманы көркемдік жағынан алсақ,өз әлеуметтік ортасында өте құнды.Алайда біз Бхытсыз Жамал романын қазіргі заман талабымен,талғамымен көрсете алмасымыз сөзсіз.Ол заман енді келмеске кеткен.Роман формасы өлеңмен басталып,қара сөзбен өріледі.Ромаун әр тұсында жаңа бір белес,жаңа сюжет желісіне өлең арқылы ауысып отырады.Ғалидің да Жамалдың да ішкі толғанысын автор өлең жолдарымен жазып отырған. Мысалы Жұманға атастырып, малға сатып жіберген ата-атаныса ренжіп былай дегені бар,

Мен қайран ата-ананың сатқанына,

Бір тазды жалпақ елден тапқанына.

Атама мен не жазып ем қор қылғандай,

Болмаса бір мінезім жақпадыма – деген бір ауыз өлеңі күллі қазақ қыздарының үндеуі десек жаңылыспаймыз. Сол заманда шал болсада ,мал беріп жас қыздарды сатып алуы қазақ қыздарының теңсіздігі болмаған кесірінен. Сол кездегі әйел теңсіздігін жақтап, оны роман көлеміне шығарған Міржақып Дулатов.

Былай алып қарайтын болсақ ,адамдардың сауатсыз болғаны,не деседе көніп кете бергені Міржақып Дулатовтың көңіліне ауыр батқан. XX ғасырдың басында бойкүйездік басқан, ұйықтап жатқан халқын өнер -білімге ,еркіндікке үндеп «ОЯН ҚАЗАҚ» атты шығармасын жазады. ОЛ шығарма 1909 жылы «Шарқ» баспасында жарық көреді. Тарихшы ғалым Мәмбет Қойгелдиевтің айтуынша «Оян, қазақ» кітабы XX ғасыр басындағы қазақ қоғамындағы түрлі топтардың бәрінің көңілінен шыққан. Қазақ халқы да, зиялылар да ,тіпті дін мұсылмандары да сүйсіне оқыған. Оян қазақ кітабы Ресей патшалық өкіметінің көкейіне тиген. Сосын автордың ізіне түсіп, бұл кітапты оқуға тыйым салды.

Міржақып Дулатов өткір және де өте жылдам жазылған бұл екі шығарма яғни «Бахытсыз Жамал» мен «Оян қазақ» шығармалары қазақтың жүрегіне жол тапқан алғашқы шығармалар болып табылады. Осы кітаптар арқылы қазақтың ішінде ояну, гүлдену, өркениетке ұмтылу деген аңсар пайда болды.

Қорыта айтқанда Ел қамын ойлап, әрқашан теңсіздікті жақтаушы Міржақып Дулатов 1928-жылы желтоқсан айында қамауға алынып, екі жылдан кейін ату жазасына кесілді. Кейін сот өкіметі он жыл абақты жазасымен ауыстырылады. Беломер-Балтық арнасының жағалауындағы, Сосновск станциясындағы жазалау лагерінде жазасын өтеген ақынымыз 1935 жылы осы лагерде ауыр науқастан көз жумады.



## ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ (REFERENCES)

1. Міржақып Дулатов «Бақытсыз Жамал»
2. Абай Энциклопедиясы. – Алматы: «Қазақ энциклопедиясының» - Бас редокциясы, «Атамұра» баспасы.
3. Қазақ әдебиеті.Энциклопедиялық анықтамалық, - Алматы: «Аруна Ltd» ЖШС, 2010 жыл.

## СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА МЕВА-САБЗАВОТ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ

**Назарова Мунаввар Соатмурод қизи**

Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва  
тадқиқотлар халқаро маркази таянч докторанти

**Аннотация:** Ушбу мақолада Сурхондарё вилоятида мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш динамикаси келтирилиб таҳлил этилган. Монографик тадқиқот натижалари кўрсатилган. Сўровнома натижасида олинган хулосалар баён қилиниб хулосалар шакллантирилган.

**Калит сўзлар:** Мева-сабзавот, рейтинг, ишлаб чиқариш, озиқ-овқат хавфсизлиги, маҳсулот етиштириш, қишлоқ хўжалиги, динамика, кўрсаткич, сўровнома, таҳлил.

**Abstract:** This article presents and analyzes the dynamics of fruit and vegetable production in Surkhandarya region. The results of the monographic research are shown.

**Key words:** Fruits and vegetables, rating, production, food security, production, agriculture, dynamics, indicator, survey, analysis.

**Аннотация:** В данной статье представлена и проанализирована динамика производства плодоовощной продукции в Сурхандарьинской области. Приведены результаты монографического исследования.

**Ключевые слова:** Фрукты и овощи, рейтинг, производство, продовольственная безопасность, производство, сельское хозяйство, динамика, показатель, опрос, анализ.

Ўзбекистоннинг барча ҳудудлари каби Сурхондарё вилоятининг ҳам табиати, иқлими, жойлашуви, меҳнаткаш аҳолиси мавжудлигидан келиб чиқиб мева-сабзавот етиштиришда имкониятлари катта. Мавжуд имкониятлардан оқилона фойдаланиш мамлакат иқтисодиётини юксалишида ўз ўрнига эга. Сўнги йилларда Сурхондарё вилоятида ҳам қишлоқ хўжалигини ривожлантириш борасида ислоҳотлар қилинмоқда. Мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш ҳажми ҳам йиллар кесимида ошиб бормоқда. Буни 1-жадвалда келтирилган маълумотларидан ҳам кўриш мумкин. Сурхондарё вилояти туманлари кесимида 2017 йилда 18.4 минг гектар майдонга мева-сабзавот маҳсулотлари экилган бўлса, ҳосилдорлик 241.5 центнерни, ялпи ҳосил 0.9 минг тоннани ташкил этган. 2018 йилда ҳам 18.4 минг гектар майдонга мева-сабзавот маҳсулотлари экилган бўлиб, ҳосилдорлик 13.2 центнерга, ялпи ҳосил 672.5 минг тоннага ошган. 2019 йилда мева-сабзавот экилган майдон 0.8 минг гектарга камаган бўлсада, ҳосилдорлик ошиб 278.4 центнер ҳолатини қайд этган. Ялпи ҳосил ҳам ўз навбатида ошган. 2020 йилга келадиган бўлсак, майдон 18.3 минг гектар, ҳосилдорлик 271,3 центнер, ялпи ҳосил 1013.6 минг тоннага етган. 2021 йил жами 20.4 минг гектар майдонга сабзавот маҳсулотлари экилган. Ҳосилдорлик 286.5 центнер, ялпи ҳосил 1066.0 минг тоннани ташкил этган. Сабзавот маҳсулотларини етиштиришда бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари каби барча агротехник тадбирларни тўғри амалга ошириш аҳамиятли ҳисобланади. Ундан ташқари мавсумнинг ҳарорати ва сув билан таъминланганлик ҳолати ҳам катта таъсир қилади. Сабзавотчиликда уруғ навларини ҳам ҳудудга мосини танлаш лозим.

1-жадвал маълумотларида Сурхондарё вилояти туманлари кесимида 2017-2021 йиллар ҳолатига мева ва резаворларни етиштириш ҳажми келтирилган. 2017 йилда 16.1 минг гектар майдонга мева ва резаворлар экилган. Ҳосилдорлик 107.3 центнер, ялпи ҳосил 137.4 минг тоннани ташкил қилган. 2018 йилда 48.1 минг гектар майдондан 98.1 центнер ҳосилдорлик

олинган, ялпи ҳосил 154.6 минг тоннани ташкил қилган. 2019 йилда 49.5 минг гектар майдондан 104.6 центнер ҳосилдорлик олинган ва ялпи ҳосил 157.4 тоннани қайд этган. 2020 йилда 51 минг гектар майдонда мева ва резаворлар етиштирилган. Ҳосилдорлик 95.2 центнер, ялпи ҳосил 164.5 минг тоннага чиққан. 2021 йилда ҳам ўсиш кузатилиб, 52.6 минг гектардан 100.6 центнер ҳосил олинган. Ялпи ҳосил ҳам ўз навбатида юқорилаб 172.5 минг тоннага етган.

2-жадвал маълумотларида Сурхондарё вилоятида сабзавотчиликка ихтисослашган фермер хўжалиklarининг йўналишлари ва экин ер майдонлари ҳажми 2022 йил ҳолатига келтирилган. Жами ихтисослашган фермер хўжалиklarининг сони 351 тани ташкил қилади. Ушбу фермер хўжалиklари 6374,6 гектар ер майдонида маҳсулот етиштиради. Шундан сабзавотчилик йўналишидаги фермер хўжалиги 223 та ва ер майдони 3 645.8 гектар, боғдорчилик-сабзавотчиликка ихтисослашган фермер хўжалиги 28 та ва ер майдони 1 255.0 гектар, ғаллачилик-сабзавотчиликка йўналишидаги фермер хўжалиklари 47 та ва ер майдони 728 гектар, пахта-ғалла-сабзавотчилик йўналишида фермер хўжалиklари 3 та ва ер майдони 20 гектар, полизчилик-сабзавотчилик бўйича фермер хўжалиklари 50 та ва ер майдони 728.0 гектарни ташкил этади.

Ихтисослашган фермерлар сони бўйича Ангор Узун ва Музрабод туманлари етакчилик қилади. Ангор, Қизирик, Сарасиё ва Термиз туманларининг экин ер майдонлари бошқа туманларга нисбатан катта.

Шунга эътибор бериш керакки, боғдорчилик-сабзавотчилик хўжалиklарида боғ қаторлари орасига сабзавот маҳсулотлари экилиши назарда тутилади. Ғаллачилик-сабзавотчилик хўжалиklарида ғалладан бўшаган ер майдонларига иккинчи экин сифатида сабзавот маҳсулотлари етиштирилади.

Сурхондарё вилояти туманларидаги мева-сабзавот етиштирувчи субъектлар ўртасида сўровномалар ўтказдик. Мана шу сўровларнинг биттаси

яъни, “Туманингизда озиқ-овқат етиштириш билан боғлиқ қандай муаммолар бор?” – деган мазмундаги саволга 30 фоиз респондент сув муаммоси борлигини, яна 30 фоизи ҳашоротларга ва касалликларга қарши кураш қимматлиги, 40 фоизи кимёвий ўғитларнинг нархлари қиматлигини ва иқлим ўзгаришининг салбий таъсири борлигини, ерлар деградацияга учраётганлиги, техникаларнинг етарли эмаслигини билдирган. Охирги аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан барқарор таъминлашда мева-сабзавотчилик тармоғини ривожлантириш бўйича қандай таклифларингиз бор деб берилган саволга респондентлар ер солиғини камайтириш керак деган мазмунда, аҳолига 2.5-5 гектар ерни мева-сабзавотчилик учун тегишли тартибда бериш керак, имтиёзли кредитлар ҳажмини ошириш кераклиги, тайёр маҳсулотларни сотиш механизмини такомиллаштириш, сақлаш тизимини кенгайтириш керак деган жавобларни билдиришган. Сўровлар, учрашувлар, таҳлиллар ва тадқиқотлардан кўриниб турибдики Сурхондарё вилоятида ҳали ҳам шунча ижобий натижаларга қарамай муаммолар мавжуд. Ушбу муаммоларни бартараф қилишда мева-сабзавот етиштирувчи қишлоқ хўжалиги корхоналари, фермерлар, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг фикрларини ўрганиш муҳим. Шу билан бирга фақат майдон жиҳатдан эмас ишлаб чиқариш жиҳатдан ҳам кенгайтиришга эришишимиз лозим. Рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш бош мақсадимиз бўлиши керак.

Сурхондарё вилоятида 2017-2021 йилларда сабзавот маҳсулотларини етиштириш кўлами<sup>7</sup>

Туманлар номи	2017 йил			2018 йил			2019 йил			2020 йил			2021 йил		
	майдон, минг га	хосилдорлик, ц/га	ялли хосил, минг тонна	майдон, минг га	хосилдорлик, ц/га	ялли хосил, минг тонна	майдон, минг га	хосилдорлик, ц/га	ялли хосил, минг тонна	майдон, минг га	хосилдорлик, ц/га	ялли хосил, минг тонна	майдон, минг га	хосилдорлик, ц/га	ялли хосил, минг тонна
<b>Жами:</b>	<b>18,4</b>	<b>241,5</b>	<b>0,9</b>	<b>18,4</b>	<b>254,7</b>	<b>914,0</b>	<b>17,6</b>	<b>278,4</b>	<b>971,9</b>	<b>18,3</b>	<b>271,3</b>	<b>1</b>	<b>20,4</b>	<b>286,5</b>	<b>1</b>
1 Термиз ш.	0,1	0,0	0,0	0,1	102,6	0,7	0,1	83,4	0,7	0,1	188,3	2,1	0,2	277,0	2,4
2 Олтинсой	1,3	195,5	0,0	1,3	275,5	44,4	1,3	236,6	57,9	1,3	250,6	60,0	1,3	265,4	60,7
3 Ангор	1,2	236,9	0,1	1,2	252,0	79,3	1,2	281,0	67,6	1,2	241,1	75,7	1,5	241,9	80,8
4 Бадиқхон	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,7	205,9	23,5	0,7	308,3	23,9
5 Бойсун	3,2	232,0	0,0	3,2	67,9	32,2	0,8	226,7	30,5	0,7	245,8	27,7	0,7	253,1	27,8
6 Музработ	0,5	196,4	0,0	0,5	335,8	39,9	0,6	295,2	41,1	0,8	215,1	45,0	1,0	232,9	47,2
7 Денов	2,1	252,7	0,2	2,1	317,8	168,8	2,2	301,1	165,0	2,3	370,4	161,8	3,4	373,8	167,2
8 Жарқўрғон	1,4	228,4	0,1	1,4	337,5	75,5	1,4	311,9	69,9	1,4	323,5	69,9	1,4	326,7	78,7
9 Қумқўрғон	2,0	252,4	0,1	2,0	247,9	64,0	2,0	222,0	74,0	1,9	208,2	80,1	2,0	214,3	88,1
10 Қизриқ	1,4	337,0	0,1	1,4	308,9	78,5	1,4	265,0	60,7	0,9	269,7	35,5	0,9	253,0	36,4
11 Сарюсиё	0,9	225,1	0,1	0,9	334,4	72,2	1,2	355,3	59,2	1,2	272,7	65,4	1,1	289,1	67,0
12 Термиз	0,8	189,3	0,0	0,8	299,0	48,8	1,0	306,9	72,1	1,1	322,4	83,7	1,1	326,7	96,7
13 Узун	0,7	205,0	0,1	0,7	335,5	60,9	0,7	361,2	58,1	0,7	332,7	59,2	0,8	340,6	60,4
14 Шеробод	1,9	216,9	0,1	1,9	269,0	80,8	2,0	303,7	144,8	2,1	262,1	152,0	2,1	283,4	155,2
15 Шўрчи	0,9	211,1	0,1	0,9	303,7	67,8	1,8	231,2	70,4	1,8	230,4	72,1	2,3	238,5	73,4

<sup>7</sup> Муаллифнинг тадқиқотлари натижасида тузилди.

Сурхондарё вилоятида 2017-2021 йилларда мева ва резаворларни етиштириш ҳажми<sup>8</sup>

№	Туман номи	2017 йил			2018 йил			2019 йил			2020 йил			2021 йил		
		майдон, минг га	ҳосил-дорлик, ц/га	ялли ҳосил, минг тонна	майдон, минг га	ҳосил-дорлик, ц/га	ялли ҳосил, минг тонна	майдон, минг га	ҳосил-дорлик, ц/га	ялли ҳосил, минг тонна	майдон, минг га	ҳосил-дорлик, ц/га	ялли ҳосил, минг тонна	майдон, минг га	ҳосил-дорлик, ц/га	ялли ҳосил, минг тонна
	<b>Жами:</b>	<b>16,1</b>	<b>107,3</b>	<b>137,4</b>	<b>48,1</b>	<b>98,1</b>	<b>154,6</b>	<b>49,5</b>	<b>104,6</b>	<b>157,4</b>	<b>51,0</b>	<b>95,2</b>	<b>164,5</b>	<b>52,6</b>	<b>100,6</b>	<b>172,5</b>
1	Термиз ш.	0,0	0,0	0,0	0,0	49,6	0,1	0,1	26,4	0,3	0,1	31,5	0,3	0,2	33,6	0,3
2	Олгинсой	1,3	146,1	12,1	1,4	96,6	8,3	1,8	97,4	11,6	1,8	82,6	11,8	2,0	82,9	12,6
3	Ангор	0,8	84,6	4,9	1,5	60,0	4,9	1,2	65,6	5,0	1,1	59,3	5,2	1,0	75,9	5,6
4	Бандихон	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,7	71,3	2,5	1,1	72,6	2,5
5	Бойсун	1,3	134,8	11,8	3,0	59,0	14,4	1,6	125,4	14,1	1,5	119,0	14,0	1,6	117,5	14,2
6	Музработ	0,7	91,3	6,5	0,7	91,5	6,3	0,8	89,2	7,2	0,9	84,3	7,7	1,2	88,8	8,2
7	Денов	1,3	143,5	18,3	1,6	147,7	23,7	1,8	100,0	17,5	1,8	106,2	18,8	2,0	121,7	23,6
8	Жархўргон	0,7	155,2	7,1	1,2	181,1	9,2	3,0	84,8	10,6	3,2	77,3	11,2	3,1	78,8	11,3
9	Қумқўргон	1,3	81,5	9,2	1,5	89,3	11,7	1,4	134,7	14,5	1,5	117,7	14,9	1,6	120,0	14,9
10	Қизриқ	1,1	81,7	5,6	1,1	86,2	5,7	1,2	90,9	5,9	0,8	61,6	3,7	1,0	63,6	3,7
11	Сарюсиё	2,6	89,2	21,3	3,1	90,0	22,9	3,4	105,5	24,5	3,6	85,4	26,7	3,8	91,0	27,1
12	Термиз	0,8	85,5	5,6	1,1	78,4	5,7	0,8	125,9	6,1	0,9	118,5	6,6	0,8	138,6	6,7
13	Узун	1,2	138,8	12,2	28,8	108,4	12,0	28,6	93,5	6,7	28,6	88,5	6,8	28,6	92,8	7,0
14	Шеробод	2,1	99,6	17,5	2,2	131,0	23,8	2,5	129,2	27,2	3,2	129,7	27,7	3,3	132,3	28,0
15	Шўрчи	0,8	92,0	5,5	0,8	89,1	6,0	1,2	88,1	6,2	1,4	86,9	6,6	1,5	88,8	6,7

<sup>8</sup> Муаллифнинг тадқиқотлари натижасида тузилди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, мамлакатимизнинг ҳар бир ҳудуди имкониятларидан оқлона фойдаланган ҳолада мева-сабзавот етиштириш тизимини такомиллаштириб бориш лозим. Озиқ-овқат хавфсизлиги шароитида бу масалага жиддий эътибор талаб этади. Айти пайтда таҳлил натижаларига кўра глобал GFSI нинг 2019-2022 йилгача бўлган уммий рейтингда Ўзбекистон 12 поғона кўтарилди. Жорий йилда 113 та ўридан 73-ўринга лойиқ бўлган бўлса, бу ҳолатда ҳам мева – сабзавот маҳсулотларини экспорт қилиш ва етиштириш билан боғлиқ сани ҳаракатларимиз ҳам инобатга олинган. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда жадал ривожланаётган мамлакатлар орасида 10-ўринда кетаётганлигимизни эътироф этган ҳолда, келгусида кучли бешталикка кириш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқишимиз зарур.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Қишлоқ хўжалиги вазирлигидан олинган маълумотлар.
2. Сурхондарё вилояти ҳокимияти томонидан олинган маълумотлар.



## ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМИЙ ЁНДАШУВНИНГ МОҲИЯТИ

**Бузанов Нодирбек Пардабой ўғли**

Жиззах давлат педагогика университети

Таълим муассасаларининг бошқаруви магистранти

### АННОТАЦИЯ

Мамлакатимиз ва хорижда шахсга йўналтирилган таълим масаласи ҳозирги кунгача илмий изланувчилар ҳамда олимларнинг тадқиқотлари предметига айланган. Ўзбекистонда шахсга йўналтирилган таълим муҳити ва унинг назарий педагогик асослари Д.Шарипова, Р.Сафарова, Ф.Юзликаев, Б.Маъмуров, Э.Турдикулов, Ш.Қурбонов, О.Мусурмонова, С.Нишонова ва Р.Жўраев каби қатор тадқиқотчилар изланишларида ўз аксини топган.

**Калит сўзлар:** педагогик фаолият, педагогик технологиялар, шахсга йўналтирилган таълим, психоанализ,

### КИРИШ

Мазкур муаммонинг педагогик фаолият концепцияси ва ушбу жараёни такомиллаштириш юзасидан МДХ давлатлари тадқиқотчиларидан Ф.Фоменко, В.Сериков, С.Багаева, Г.Батищев, Е.Подольская, И.Иванов, Е.Бондаревская, В.Леднев, А.Макаров, Н.Никандров, Т.Шамоваяратиш, Е.Степановларнинг илмий ишларида муайян даражада ёритилган.

Узоқ хориж мамлакатлари олимларидан D.Nunan, H.Seliger, M.Long, H.Widdowson, M.Stage, J.Atkins, J.Baird, T.Blythe каби олимлар қатор изланишлар олиб боришган. Ҳозирги кунга қадар шахсга йўналтирилган таълим муаммоси сифатида ҳам маҳаллий, ҳам хорижий олимлар кенг тадқиқ этилган бўлса-да, уни айнан хорижий тилларни ўзлаштириш ва ўқитишнинг педагогик

шартлари, технологиялари Она тил хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда тадқиқ этиш эътибордан четда қолмоқда. Айнан хорижий тиллар аълимида шахсга йўналтирилган таълим методик-дидактик асос ва технологияларини тадқиқ этиш, уни такомиллаштириш зарурати дқиқотимиз авзусини белгилаб берди.

## АДАБИЁТЛАР ТАХЛИЛИ

Замонавий педагогик технологиялар ёритилган адабиётларда “Шахсга йўналтирилган таълим” масаласига алоҳида эътибор қаратилади. Ушбу ёндашув нафақат таълим, психология ва психотерапия, балки бошқарув органлари, тиббий амалиёт ва халқаро муносабатлар контекстларида фаол қўлланиб келинмоқда. Ўтган асрнинг 60-80 йилларида пайдо бўлган гуманистик психологиянинг етук арбоби ва асосчиларидан бири саналмиш К.Роджерснинг илмий изланишлари ва амалий хизматлари сабабли ҳозирги кунда шахсга йўналтирилган ёндашув гуманистик нуқтаи назар сифатида амалий аҳамиятга эга бўлиб келмоқда, шунингдек, унинг ўрни жамият ҳаёти ва таълимнинг энг кенг соҳаларида ўзгармасдир. “Роджерснинг таълимнинг ўрни, ўқитувчи роли, унинг талабалар билан ўзаро муносабатлари борасидаги ғоялари хорижий мамлакатлар таълим тизимида айнан таълимни инсонпарварлаштириш учун асос бўлган. Бу жараён, айниқса, 60-70-йиллар изланишларида марказий тадқиқот мавзуси бўлган. Англия, АҚШ (кейинчалик Германия)нинг минглаб коллеж, бошланғич, ўрта ва юқори синф ўқитувчи ва ўқувчилари иштирок этган мазкур таълимий тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, ушбу ёндашув ўқувчилар (ва ўқитувчилар) ривожланишига ижобий таъсир этади: уларда ўз-ўзига баҳо бериш, ўз-ўзини ҳурмат қилиш хислати яхшиланди, уларнинг когнитив қобилиятлари ривожланди, бу эса, ўз ўрнида, уларнинг саломатлиги, дарсларни ўзлаштириш даражаси ва давоматини яхшиланишига олиб келди.

Роджерснинг таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи гуманистик ғоялари узлуксиз таълим тизимини ва умуман жамиятни

демократлаштириш, инсонпарварлаштиришда муҳим қадам бўлиб хизмат қилади”. Педагогика (шу жумладан, дидактика) психология билан чамбарчас боғлиқлиги қатор хорижий олимлар<sup>2</sup> томонидан ҳам таъкидланади. Ушбу боғлиқлик нафақат субъектлар (шахс, бола) ва ўқитиш методлар умумийлиги, балки умумназарий қарашлар, инсон ичра инсоний табиат/инсонийликни тушуниш ва англаш билан ҳам белгиланади. Турли психологик назариялар турли хил педагогик қарашларга олиб келади. Шахсга йўналтирилган таълим ёндашуви орқали бошқа педагогик ёндашувлардан фарқли тарзда айнан таълим соҳаси муаммоларини ҳал этиш имконияти яралади. Бу эса замонавий ўзбек педагогикасининг олдида турган энг муҳим вазифалардандир. Шахсга йўналтирилган таълим моҳияти ёритилган адабиётларда қайд этиладики, “шахсга йўналтирилган таълим” тушунчаси борасида турли талқинлар мавжудлиги ушбу ёндашув моҳиятини тушунишда қийинчиликларга олиб келиши мумкин. Инсон шахсияти ҳар бир таҳлилини психологик нуқтаи назардан психоанализ деб аташ мумкин эмас. Психоанализ З.Фрейд томонидан ишлаб чиқилган қуруқ назария ва методлар эканлигини ҳеч ким инкор этмайди. “Психоанализ” тушунчаси барча тадқиқотчи ва амалиётчилар томонидан бир хил маънода тушунилади. Аммо “шахсга йўналтирилган таълим” ҳақида бундай дея олмаймиз. Жумладан, русийзабон тадқиқотчи И.С.Якиманская бу ҳақида: “Шахсга йўналтирилган таълим бу – шундай таълим туридирки, ундабола (ўқувчи)нинг шахсияти, ўзига хослиги, унинг шахсий тажрибаси биринчиўринга қўйилади, шундан сўнггина таълим мазмуни шунга мослаштирилади” деб ёзади. Бундан ташқари “Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, анъанавий педагогикада ҳам шахсни ривожлантириш устувор вазифа саналади, демак, шахсга йўналтирилган таълимнинг мазмуни ушбу маънода ўз аксини топиши”, қайд этилган ва сўнгра шахсга йўналтирилган таълим педагогикасининг қатор гуруҳлари санаб ўтилган. Л.М.Фридман эса “шахсга йўналтирилган (ёндашув асосида) ўқитиш” ва “шахсга йўналтирилган таълим” тушунчаларини ўзаро фарлашни таклиф этади: “Улардан биринчиси фақатгина

ўқувчилар шахсий фазилатларини шакллантирувчи жараёни ифодаловчи ўқитиш жараёнини англатса, иккинчиси кенгроқ маънони, яъни нафақат юқорида қайд этилган биринчи жараёни, балки ўқувчи шахсини тарбиялаш тизиминининг бутун тизимини қамраб оладиб. Аммо шахсга йўналтирилган таълим тизимига ўзгача ёндашув сифатида ҳам қараш мумкинлигини И.С.Якиманская қайд этган.

## ХУЛОСА

Шундай қилиб, шахсга йўналтирилган таълим борасида турли, баъзан қарама-қарши нуқтаи назарлар мавжуд. Бу эса мазкур ёндашувнинг миллий педагогика (методика) миз учун янги ёндашувлардан эканлиги ва у ҳамон тўлиқ тадқиқ этилмаганлигидан далолат беради, дейиш мумкин бўлади. “Шахсга йўналтирилган таълим”ни ифодаловчи назария ва амалиёт ўз узок тарихига эга бўлиб, уни турлича номлар билан аташган бўлса-да, уларнинг барчасида муайян нуқтаи назарлар асоланган таълим-тарбия жараёни қайд этилади: гуманистик педагогика, неопрагматизм, экзистенциализм, неопедоцентризм, эркин таълим-тарбия (ўтган асрнинг 70-йиллари АҚШ ва Европа таълимида), ҳамкорликдаги педагогика (ўтган асрнинг 80-йиллари ССРда).

## REFERENCES

1. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем // Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. С.25
2. Беспалова Л. Что такое кластер? [Электронный ресурс] // URL: <http://siok.rightside.ru/siok/> 2009-12-01-06-24-41. Загл. с экрана.

3. Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффективности деятельности вуза // Высшее образование в России. 2012. №8-9. С. 75.
  4. Сидорин А.В. Система формирования кадрового потенциала высокотехнологичных отраслей промышленности на основе кластерного подхода // Интернет-журнал «Науковедение». 2012. №4. С. 3.
  5. Портер М. Конкуренция. Киев: «Вильямс», 2001. 208 с.
  6. Давыдова Н.Н., Игошев Б.М. и др. Образовательный кластер как системообразующий компонент региональной модели непрерывного педагогического образования // Педагогическое образование в России. 2014. 7.
- Захидов Г.Э. Метод организации и управления производством кластерным методом. Т.:Фан, 2016. 160с.

<http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.29>

## ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗА НАВЛАРИНИНГ F<sub>1</sub> ДУРАГАЙЛАРИДА БАРГЛАРНИНГ СОЛИШТИРМА САТҲ ЗИЧЛИГИ БЕЛГИСИНИНГ ИРСИЙЛАНИШИ

**Ниёзалиева Муслима Икромжон қизи**

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялари институти талабаси

**Аннотация:** F<sub>1</sub> дурагайларида барглари солиштирма сатҳ зичлиги белгисининг ирсийланиш хусусияти бўйича олинган маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** сўзлар: ингичка толали, ғўза, нав, дурагай, ирсийланиш, доминантлик даражаси.

**Аннотация:** В статье приведены сведения, полученные определением особенностей наследования по удельная поверхностная плотность листьев у гибридов F<sub>1</sub> сортов тонковолокнистого хлопчатника.

**Ключевые слова:** тонковолокнистые хлопчатника, сорт, гибрид, наследование, коэффициент доминантность.

**Annotation:** The article presents information obtained by determining the characteristics of inheritance trait of specific surface density of leaves in F<sub>1</sub> hybrids of fine fiber cotton varieties.

**Keywords:** Fine fiber, cotton, variety, hybrid, inheritance, dominance coefficient.

Ўсимликларнинг ҳаётий жараёнларини, айниқса, фотосинтетик хусусиятини таснифлашда ўсимликларда барг параметрларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. *G.barbadense* L. турига мансуб ғўза навлари биологик хусусиятлари бўйича юқори иссиқлик ҳароратларига жуда талабчан бўлиб, жанубий

худудларида унча катта бўлмаган майдонларда етиштирилади. Ингичка толали ғўза навларини етиштириш, уларнинг юқори сифатли толасини қайта ишлаб, ип-калава ва тайёр тўқимачилик маҳсулотларини сотиш давлат иқтисодига катта фойда келтиради. Бу мақсадга эришишда ингичка толали ғўза навларининг тезпишар, толаси сифатли ва юқори ҳосилли навларини яратиш ва уларнинг экин майдонларини кенгайтириш муҳим аҳамият касб этади (V.A.Avtonomov and et.all., 2017; С.М.Набиев ва бошқалар, 2020; Б.Х.Аманов, Ф.Р.Абдиев, 2021; J.F.Zhang, 2017).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17-18 октябрда Сурхондарё вилоятида фермерлар ва селекционерлар билан учрашувида ингичка толали ғўза навларининг экин майдонларини йилдан-йилга кенгайтириш зарурлиги қайд этилди. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида Қишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш орқали 2022 йилда даромадни камида 25 фоизга ошириш бунда маҳсулот таннархини 30-35 фоизга қисқартириш, пахтадан ўртача 37 центнер ҳосил олишга эришиш, биологик эскирган навлар ўрнига серҳосил, эртапишар, тола сифати юқори бўлган 8 та ғўза навлари майдонини кенгайтириш, замонавий сувни тежайдиган технологияларни жорий қилиш ҳисобига пахта ҳосилдорлигини гектаридан 7-10 центнерга ошириш, 200 минг гектар пахта майдонларида лазерли текислашни жорий қилиш ҳисобига 20-25 фоиз сувни иқтисод қилиш ва қўшимча 5-6 центнер ҳосил олиш вазифалари белгилаб берилган. Қатор олимлар (Ж.Х.Ахмедов, Х.Чориева, 2018; С.М.Набиев ва бошқалар, (2020) ўз илмий изланишларида *G.barbadense* L. туричи дурагайлаш усулини қўллаш асосида керакли белги ва хусусиятларга эга бўлган навлар яратиш мумкинлиги кўрсатиб берилган. Ингичка толали ғўзанинг замон талабига мос навларини яратишда қимматли-хўжалик белгилари билан бир қаторда, морфофизиологик белгиларнинг ирсийланишини, бу белгиларнинг ўзаро боғлиқлик хусусиятларини ўрганиш муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади.

**Тадқиқотимизнинг мақсади** *G.barbadense* L. турига мансуб ғўза ўсимлигида муҳим морфофизиологик белгилардан бири бўлган баргларнинг солиштирма сатҳ зичлиги (БССЗ), яъни барг қалинлигини, унинг F1 дурагайларида ирсийланишини ва қимматли-хўжалик белгилари билан боғлиқлик даражасини аниқлашдан иборат. Тадқиқотларимиз Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институтига қарашли тажриба даласида олиб борилди. Тажриба даласининг тупроғи типик бўз тупроқ бўлиб, шўрланмаган, ер ости сувлари чуқур жойлашган (8,0 метрдан ортиқ), вилт билан табиий зарарланган. Агротехник тадбирлар ўз вақтида ва сифатли олиб борилди. Тадқиқот манбаи сифатида маҳаллий ингичка толали ғўза навлари ва уларнинг F1 дурагайлари ўсимликларидан фойдаланилди. Ғўза навлари ва F1 дурагай комбинациялари рендомизация усулини қўллаган ҳолда уч қайтариқда, ҳар бир қайтариқда 2 қатордан, ҳар бир қаторда 25 та уядан иборат ҳолда жойлаштирилди.

Экиш схемаси 90x20x1. Навлар ва F1 ўсимликлари баргларининг солиштирма сатҳ зичлиги ҳар бир нав ва F1 комбинациясидан 30 тадан ўсимлик олиб, уларнинг ўсиш нуқтасидан ҳисоблаганда 3-баргларидан №5 сверло ёрдамида аниқ барг сатҳига эга дисклар қирқиб олиш, уларни қуритиш ва электрон тарозида қуруқ оғирлигини ўлчаб, 10 см<sup>2</sup>га тўғри келадиган барг оғирлигини аниқлаш усули билан ўрганилди. Тадқиқотларимизда баргларнинг солиштирма сатҳ зичлиги бўйича энг юқори кўрсаткичлар Бухоро-7 ва Сурхон-9 навларида (мос равишда 99,1 мг/10 см<sup>2</sup> ва 98,9 мг/10 см<sup>2</sup>) қайд этилди (1-жадвал). Энг паст кўрсаткич Дуру-Гавхарнавида (93,7 мг /10 см<sup>2</sup>) бўлган бўлса, Сурхон-10 ва Термиз-32 навларида эса мос равишда 97,5 мг/10 см<sup>2</sup> ва 95,9 мг\10 см<sup>2</sup>) ни ташкил этди. Навларнинг F1 дурагайларида белгининг энг юқори кўрсаткичлари Термиз-32 x Сурхон-9 ва Бухоро-7 x Сурхон-9 комбинацияларида (109,1 мг/10 см<sup>2</sup>, 109,1 мг/10 см<sup>2</sup>дан) аниқланди. Баргларнинг солиштирма сатҳ зичлигининг энг паст кўрсаткичи F1 (Термиз x Дуру-Гавхар) комбинациясида қайд этилиб, 91,3 мг/10 см<sup>2</sup> ни ташкил этди.



Баргларнинг солиштирма сатҳ зичлиги белгиси 20 та F1 дурагайлардан 5 тасида салбий ўта доминантлик, 1 тасида кўрсаткичи паст навнинг тўлиқсиз доминантлиги, 2 тасида кўрсаткичи юқори навнинг тўлиқсиз доминантлиги, 12 тасида ижобий ўта доминантлик ҳолатларида ирсийланди. Баргларнинг солиштирма сатҳ зичлиги бўйича бир-биридан ишончли фарқ қиладиган Сурхон-9 ва Термиз-32 навларининг ўзаро реципрок, яъни тўғри Сурхон-9 х Термиз-32, тескари Термиз-32 х Сурхон-9 комбинацияларида белги ижобий ўта доминантлик (мос равишда  $h_p=2,53$ ,  $h_p=7,8$ ) ҳолатида ирсийланди. Термиз-32 ва Бухоро-7 навларининг тўғри Термиз-32 х Бухоро-7 ва тескари Бухоро-7 х Термиз-32 комбинацияларда ҳам белгининг ижобий ўта доминантлик (мос равишда  $h_p=3,25$ ,  $h_p=4,19$ ) ҳолатида ирсийлангани қайд этилди.

Баргларнинг солиштирма сатҳ зичлиги бўйича бир-биридан ишончли фарқ қилмайдиган Термиз-32 ва Дуру-Гавхар навларининг тўғри F1 Термиз-32 х Дуру-Гавхар комбинациясида белгининг ирсийланишида салбий ўта доминантлик ( $h_p=-3,18$ ), тескари Дуру-Гавхар х Термиз-32 комбинациясида эса аксинча ижобий ўта доминантлик ( $h_p=1,54$ ) қайд этилди. Бундан ташқари, белги бўйича статистик ишончли фарқланмайдиган Бухоро-7 ва Сурхон-10 навларининг тўғри F1 Бухоро-7 х Сурхон-10 комбинациясида паст кўрсаткичли Сурхон-10 навининг тўлиқсиз доминантлик ( $h_p=-0,25$ ), тескари F1 Сурхон-10 х Бухоро-7 комбинациясида эса салбий ўта доминантлик ( $h_p=-4,25$ ) ҳолатларида ирсийланиш қайд этилди.

Барг сатҳининг солиштирма зичлиги бўйича ижобий гетерозис самараси – F1 Термиз-32 х Сурхон-9 -110,3%, F1 Бухоро-7 х Сурхон-9 – 110,1%, F1 Дуру-Гавхар х Бухоро-7 -108,0%, F1 Дуру-Гавхар х Сурхон-10да – 105,9% ва F1 Бухоро-7 х Термиз-32 – 105,1% дурагай комбинацияларида қайд этилди.

Шундай қилиб, ингичка толали ғўза навларининг F1дурагайларида барг сатҳининг солиштирма зичлиги белгиси, асосан, ижобий ва салбий ўта доминантлик ҳолатларида ирсийланди. Ушбу белгининг ирсий назоратида ядровий генлар билан бир қаторда цитоплазматик генларнинг ҳам иштирок

этиши Термиз-32 ва Бухоро-7 навларининг ўзаро тўғри ва тескари дурагайларида ташқари қолган барча ҳолатларда реципрок фарқланиш мавжудлиги аниқланди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли фармони 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастури.

2. Ахмедов Ж.Х., Чориева Х. Ингичка толали ғўзанинг афзалликлари.// Қишлоқ хўжалиги журнали. - Тошкент. 2018. -№9. – Б.31

3. Аманов Б.Х., Абдиев Ф.Р. Перу ғўза турларини туричи ва турлараро дурагайлаш асосида генетик жиҳатдан бойитилган тизмалар яратиш //Монография.-Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2021.- 218 б.

4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. //Москва: Агропромиздат,1985.-С.199,318, 320.

5. Avtonomov V.A., Kimsanbaev O.X., Namazov Sh.E., Qurbonov A.Y., Urmanov Sh.X., Mullaxunov B. Problems and ways of the recovery of cultivation of fine-fiber cotton varieties in the republic of Uzbekistan // Digest of scientific and technical achievements in the realm of cotton industry of the republic of Uzbekistan. Tashkent. 2017. - P. 31-34.

## **BOLALARDA UCHRAYDIGAN KO‘KYOTALNI DAVOLASH PROFILAKTIKASI**

**Urdusheva Madina O‘rol qizi**

**Hamdamova Zilola Hamdam qizi**

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 2-bosqich talabalari

Email: [madenaurdushiva@gmail.com](mailto:madenaurdushiva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda bolalarda ko‘kyo‘tal kasalligining paydo bo‘lishi, a‘zolarining zararlanishi, yo‘tal xurujli yo‘tal va asab sistemasi faoliyatining buzilishi bilan kechadi. Ko‘kyo‘tal yosh bolalarda juda erta rivojlanishi, ya‘ni hayotining birinchi kunlaridan boshlab kasallanishi haqida fikir mulohaza yuritamiz.

**Kalit so‘zi:** ko‘kyo‘tal, patogenez, inkubatsion davr, prodromal davr, allergiya, immunitet, profilaktika, remissiya, rekonvalisensiya.

**Аннотация:** В данной статье мы описываем появление коклюша у детей, поражение органов, кашель с приступообразным кашлем, дисфункцию нервной системы. Мы имеем в виду очень раннее развитие коклюша у детей раннего возраста, то есть заболевание с первых дней жизни.

**Ключевые слова:** коклюш, патогенез, инкубационный период, продромальный период, аллергия, иммунитет, профилактика, ремиссия, реконвалесценция.

**Abstract:** In this article, we describe the appearance of whooping cough in children, organ damage, cough with paroxysmal cough and nervous system dysfunction. We think about the very early development of pertussis in young children, that is, the disease from the first days of life.

**Key words:** whooping cough, pathogenesis, incubation period, prodromal period, allergy, immunity, prevention, remission, convalescence.

Ko'kyo'tal nafas yo'lining juda xavfli bakterial infeksiyasi hisoblanib, uning qo'zg'atuvchisi Bordetella pertussis bakteriyasidir. Infeksiyaga yo'liqqan kishi yo'talishi yoki aksa urishi oqibatida havoga mikroba tarqaladi va shu yaqin atrofda nafas olgan odam zararlanadi.<sup>9</sup> Buning sabablaridan biri shuki, 1 yoshgacha bo'lgan bolalarning atigi 40% faol emlanadi, qolganlari esa turli sabablar tufayli emlanmay qoladi. Patogenezi. Ko'kyo'tal mikroblari nafas yo'llarining silindrlil epitelisida o'rinishib ko'paya boshlaydi. Bu davrda mikroblarning ko'pi nobud bo'ladi va toksin ajratadi. Ajralgan toksin asab sistemasiga, qon tomirlariga, nafas a'zolariga ta'sir qiladi. Buning natijasida bronxlar devorlarining mushaklari qisqarib, bronxospazmga olib keladi, periferik qon tomirlari ham torayadi, nafas mushaklari spastik qisqaradi. Bularning hammasi xurujsimon yo'talga va nafas faoliyatining keskin buzilishiga sabab bo'ladi. Ko'kyo'talning patogenezida allergiyaning ahamiyati katta. Ba'zan ko'kyo'tal paytida ilgaridan sezuvchanligi oshgan bolalarda astmatik sindrom uchraydi, bu ham allergiyaning kasallik rivojlanishidagi ahamiyatini qayta tasdiqlaydi.

Ko'kyo'talning kechishi bir necha davrga bo'linadi. 1 yashirin (inkubatsion); 2 kataral; 3 spastik, xurujsimon (yo'tal davri) va 4 sogayish. Yashirin (inkubatsion) davr 3-4 kundan to 10-14 kungacha davom etadi, o'rtacha 5-8 kunni tashkil qiladi. Kasallikning yashirin davrida klinik jihatdan deyarli hech qanday o'zgarish sezilmaydi. Kataral davr 12-15 kungacha cho'ziladi. Emlangan bolalarda bu davr uzayishi, go'daklarda esa aksincha, qisqarishi mumkin. Kasallik boshqa yo'tallardan farq qilmaydigan yo'tal bilan boshlanadi. Bemorning umumiy ahvoli unchalik o'zgarmaydi, klinik tekshirish natijalari esa uning organizmida yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi kuzatiladi boshqa o'zgarishlar aniqlanmaydi. Bu davr spastik (xurujsimon) yo'tal davrining boshlanishidan darak beradi. Bemorning ahvoli ancha og'irlashadi yo'tal xurujlari uni holsizlantiradi. Bu davrning asosiy belgisi xurujsimon yo'tal bo'lib, u o'ziga xos xususiyatga ega va 2-3 haftagacha davom etishi mumkin: yo'tal birin-ketin keladigan nafas chiqarish harakatlari bilan boshlanadi va

<sup>9</sup> [www.https://m.kun.uz/uz/news/category/lifestyle](https://m.kun.uz/uz/news/category/lifestyle).

oxirida qisqa shovqinli hushtaksimon nafas olish bilan tugaydi (repriz). Biroz vaqt o'tmay yana nafas chiqarish bilan kechadigan yo'tal boshlanadi.

Bunday yo'tal xuruji 2-3 tadan 20-martagacha bo'lishi va yelimsimon shilliq chiqishi yoki qayt qilish bilan tugashi mumkin. Ba'zi xuruj vaqtida ko'zning oq pardasiga qon quyiladi. Xurujlar davrida ham bemorning beti salqib, shishinqirab turadi, lab-burun uchburchagi ko'kimtir tusda bo'ladi. Yo'tal xuruji boshlanishidan oldin, ayrim bolalarda xurujlar oldi belgilari kuzatiladi bemor bezovtalanadi, qo'rqish alomatlari seziladi ko'zlari katta ochilib, tayanch nuqtasini qidirgandek harakat qila boshlaydi. Ba'zi bemorlar yo'tal xuruji o'rnida oqarish xuruji paydo bo'ladi.

“Ko'kyo'tal (frans. cogueluche) -bo'g'ilib-bo'g'ilib yo'tal tutishi bilan kechadigan o'tkir yuqumli kasallik. Ko'pincha bolalarda uchraydi. Borde-Jangu tayoqchasi degan bakteriya qo'zg'atadi (uni kashf etgan belgiyalik J. Borde va fransiyalik O. Jangu nomidan). Havo-tomchi yo'li orqali yuqadi. Kasal bola aksirganda, yo'talganda havoga tarqalgan shilliq tomchilaridagi K. tayoqchasi sog'lom bolaning nafas yo'llari orqali organizmga kiradi”<sup>10</sup>.

Periferik qonning tekshirish natijalari ham ma'lum ahamiyatga ega. Ko'kyo'talning diagnostikasi juda murakkab bo'lganda laboratoriya usuli bakteriologik tekshirish ma'lum ahamiyat kasb etadi. Buning uchun maxsus oziq muhiti solingan Petri kosachasi yo'tal xuruji paytida 4-6 sm masofadan bemorning og'ziga 10-12 sekund davomida tutib turiladi, keyin uni berkitib, mikrobnini o'stirish uchun 37°C haroratli termostatga qo'yiladi.

Bolaga kun tartibini to'g'ri tashkil etish zarur. Bemor yetarli darajada uxlashi, yo'tal xurujini paydo qiluvchi har qanday ta'sirlarni bartaraf qilish. Uni ovqati yoshiga hamda umumiy ahvoriga mos keladigan vitaminli kuchli va to'q tutadigan bo'lishi lozim. Davolash. Kasallikni davolash paytida bemorlarga vitamin A, vitamin K va askorbin kislotasi berish tavsiya etiladi. Periferik qon aylanishini yaxshilash maqsadida ularga 10-12 kun davomida vitamin PP (nikotin kislotasi) tayinlanadi. Ko'kyo'talni davolashda antibiotiklar tavsiya etiladi.

<sup>10</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBkyo%CA%BBtal>

Antibiotiklardan ampitsillin va eritromitsindan foydalaniladi. Erimtromitsin 1 kg vaznga 5000-10000 TB miqdorida kuniga 3-4 mahal ichishga 10 kun davomida berib turiladi. Ampitsillin esa kuniga 2550 mg/kg hisobida qilinib, 4 martaga bo‘lib ichishga beriladi, mushak orasiga 10 kun davomida yuboriladi. Ko‘kryo‘talning og‘ir va asoratlilar bilan kechadigan turlarida kortikosteroid gormonlardan foydalaniladi. Bu maqsadda asosan prednizolon (1 kg vaznga 1–2 mg hisobida 10-15 kun mobaynida) qo‘llanadi. Kasallikni davolashda antigistamin preparatlar dimedrol, suprastin, tavegil va boshqalar tavsiya etiladi Profilaktikasi. Ko‘kryo‘talning asosiy profilaktikasi aholini ko‘kryo‘talga qarshi faol emlashdir. 6.8. Epidemik parotit Epidemik parotit (tepki) o‘tkir yuqumli kasallik bo‘lib so‘lak bezlari, asosan quloq oldi bezlari hamda asab sistemasi zararlanishi bilan kechadi.

Kasallik maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalarda ko‘p uchrab turadi. Bolalar tarbiyalanadigan jamoalarda endemik parotitning keng tarqalishi ko‘proq kuz oylariga to‘g‘ri keladi. Etiologiyasi. Epidemik parotitning qo‘zg‘atuvchisi mikroviruslar guruhiga kiruvchi filtrlanuvchi virusdir. Kasallikning yashirin davri 11 kundan 23 kungacha davom etadi. Odatda kasallik o‘tkir boshlanib, Narkulov Jahangir 237 haroratining 36-39oC gacha ko‘tarilishi, quloq oldi bezlarini bir tomonlama yoki ikki tomonlama kattalashuvi bilan davom etadi. Bezlarning kattalashuvi ostki jag‘ suyagining shoxi bilan so‘rg‘ichsimon suyak o‘rtasidagi chuqurlikni to‘ldirib, quloq sirg‘asining oldingi pastki va orqa tomonlarigacha yoyilib ketadi. Shishning ustida atrofida terining rangi o‘zgar olmaydi. Uning chegarasi noaniq bo‘lib, o‘rta qismi qattiq-elastik konsistensiyada bo‘lgani holda atroflari qo‘lga yumshoq tegadi. Kattalashgan bezlar paypaslab va bosib ko‘rilganda yengil og‘riq beradi. Kasallikning 2-3 kuniga borib, ko‘pincha sog‘lom tomondagi quloq osti bezi ham kattalashgandan so‘ng, bemorning yuz tuzilishi o‘zgaradi.

Bezlarning kattalashuvi bemor og‘zini ochganda, ovqat chaynaganda og‘riqqa sabab bo‘ladi. Dastlabki 3-5 kunda bezning kattalashishi avj olib boradi, keyinchalik uning hajmi kamayib, kasallikning 8-10-kuniga borib, shish butunlay yo‘qoladi. Ba‘zan bu holat bir necha haftagacha davom etadi. Yuqorida qayd etilgan epidemik

parotitning og‘ir ko‘rinishlari ba‘zan quloq oldi bezlarining unchalik kattalashuvisiz va hattoki bezlar kattalashmagan hollarda ham kuzatiladi. Epidemik parotitning yengil turi 6-7 kun, o‘rtacha og‘irlikdagi turi 9-10 kun davom etishi, og‘ir turida esa kasallik belgilari 2 -3 hafta mobaynida saqlanib turishi mumkin. Kasallikning yengil turida bemorga o‘rinda yotish, ko‘p suyuqlik ichish, og‘iz bo‘shliqlarini natriy gidrokarbonatning 2%li eritmasi bilan chayqab turish tavsiya qilinadi. Kattalashgan bez sohasiga quruq yog‘li iliq kompress, sollyuks-chiroq yordamida qizdirish tavsiya qilinadi. Mamlakatimizda bolalarni epidemik parotitga qarshi emlash yo‘lga qo‘yilgan. Emlash bola hayotini 12 oyligida va olti yoshligida KPK qizamiq parotit qizilchaga qarshi vaksinasi bilan emlanadi. Epidemik parotit vaksinasi 0,5 ml miqdorda teri ostiga yuboriladi. Emlash uchun epidemik parotitga qarshi tirik lekin kuchsizlantirilgan vakcina qo‘llanadi. Davolash. Davolashda og‘riqni qoldirish, isitmani tushirish maqsadlarida parasetamol, panadol tavsiya qilinadi. Og‘ir holatlarida antibiotiklar qo‘llaniladi.

Kasallik davrida to‘g‘ri hayot tarzini yuritish juda muhim ahamiyatga ega. Bemorga dam olish, yuqori harorat kuzatilmagan vaqtda esa yengil sayr tavsiya etiladi. Asab tizimi o‘ta taranglashishi bois jahlni chiqaruvchi barcha omillardan saqlanadi. Chiroq nuri ham yumshoq va tarqoq bo‘lishi kerak. Baland ovozdagi musiqa, suhbat yoki televizor shovqini taqiqlanadi. Quyida tezroq sog‘ayishga oid bir necha tavsiyalar quydagicha. Yuqori harorat natijasida chanqash hissi oshishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiling. Ko‘p miqdorda suyuqlik ichish kerak. Eng yaxshi tanlov-suv, meva sharbati va quruq qaynatma sho‘rva. Tez-tez oz-ozdan tanovul qiling. Ko‘p ovqat yeyish yo‘tal vaqtida qayt qilishga olib kelishi mumkin. Infeksiya yuqishidan saqlaning. Qo‘lingizni sovunlab yuving, tibbiyot niqobidan foydalaning va suhbat davomida og‘zingizni salfetka bilan yopib oling.

Eng samarali yo‘li AKDS emlash. AKDS-adsorbirlangan ko‘k yo‘tal-difteriya-stolbnyak vaksinasi, demak, emlashning ta‘siri bir vaqtning o‘zida uchta qo‘rqinchli yuqumli kasalliklardan himoyalaydi. AKDS kopleksli vaksinasi, rioya etilishi zarur bo‘lgan qat‘iy o‘rnatilgan tanaffuslar bilan ko‘p marta yuboriladi (birlamchi kurs

doirasi uchun eng kamida 30 kun). Emlashlar Milliy taqvimiga ko‘ra, AKDS vaksinalash chaqaloqlar 2, 3 va 4 oylik bo‘lganda bir martadan 3 marta, so‘ngra 16 oylikda, 7 va 16 yoshda bir martadan takrorlanadi.

Xulosamiz shundan iboratkiy chaqaloqlarni odatda kasalxonada olib qolishadi, qolganlar uyda sog‘ayishlari mumkin. Asosiy usullar ikkitagacha kamaytiriladi. Infeksiya tarqalishini to‘xtatish uchun doktor antibiotiklar yozadi. Ular bakteriyalarni parchalaydi, ammo kasallik alomatlarini bartaraf etolmaydi. Haroratni tushirishda retsepsiz beriladigan og‘riq qoldiruvchilar paratsetamol yoki ibuprofen qabul qilish mumkin. Yo‘tal uchun mo‘ljallangan tabletkalar esa odatda ko‘kyo‘talda yordam bera olmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.H.Abdullayev, H.Yo.Karimov, B.O‘.Irisqulov, “Patalogik fiziologiya” “Yangi asr avlodi” NMM, 2008 y.
2. M.A. Jo‘rayeva “Dorivor o‘simliklar atlası” NOSHİR nashriyoti 2019-yil
3. [www.https://m.kun.uz/uz/news/category/lifestyle](http://www.https://m.kun.uz/uz/news/category/lifestyle).
4. <https://andrology.uz/site/maqola?id=81>
5. <https://zamin.uz/uz//45829-buyraklardan-toshlar-va-tuzlarni-chiqarib-yuborishning-usullari.html>



## ELEKTR O‘LCHASH SXEMALARI UCHUN TRANSFORMATORLAR

Assistent. **Javohir Boboqulov Saydulla o‘g‘li.**

Bakalavr talabasi. **Otabek Xayrullayev Nurbek o‘g‘li.**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti (O‘zbekiston, Navoiy)

Email: [javohirboboqulov1996@gmail.com](mailto:javohirboboqulov1996@gmail.com)

**Annotatsiya:** O‘lchash qurilmalari sanoatda, ishlab chiqarish, transport va elektr transportida muhim o‘rin egallab turadi. Ular uchun maxsus transformatorlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kam quvvatli qurilmalari o‘zgaruvchan tok tarmog‘iga bevosita ulanadi, katta quvvatli qurilmalari esa elektr tarmog‘iga maxsus maqsadli transformatorlari orqali ulanadi.

**Kalit so‘zlar:** Kuchlanish, elektr, kuch transformator, o‘zgartirgich agregat, kuchlanish, o‘zgaruvchan tok.

**Annotation:** measuring devices occupy an important place in industry, production, transport and electric transport. For them, the use of special Transformers is considered important. Low-power devices are directly connected to the ac network, while large-power devices are connected to the power grid through special-purpose Transformers.

**Keywords:** Voltage, Electric, Power Transformer, Switch unit, voltage, alternating current.

Bunday transformatorlar o‘zgaruvchan tok zanjirlarida elektr o‘lchash asboblari (voltmetr, ampermetr, vattmetr va boshq.)ning o‘lchash chegaralarini kengaytirish va yuqori kuchlanish tarmoqlarida mazkur asboblardan ishlash xavfsizligini ta‘minlash maqsadlarida ishlatiladi. Bundan tashqari releli himoya asboblarini ulashda ham foydalaniladi. Bunday transformatorlarni «o‘lchash transformatorlari» deyiladi.

Ularning quvvati 5 V·A dan bir necha yuz V·A gacha bo‘ladi. O‘lchov transformatorlari kuchlanish va toklarni o‘zgartirganda xatolik mumkin qadar kam bo‘lishining zarurligi ularga qo‘yiladigan asosiy talabdir.

Kuchlanishni o‘lchash sxemalari uchun transformatorlar. Bunday transformatorlar kuchlanishi 0,38÷1150 kV bo‘lgan o‘zgaruvchan tok tarmoqlari kuchlanishini o‘lchash sxemalarida ishlatiladi.

Shu sababdan ularni «kuchlanish transformatorlari» deyiladi. Mazkur transformator pasaytiruvchi bo‘lib, birlamchi chulg‘amda kuchlanish nominal (masalan, 3; 6; 10; 35; 110 kV va boshq.) bo‘lganda ikkilamchi kuchlanishi 100,100/3 yoki 100/3 V bo‘ladigan qilib bajariladi. Uning ikkilamchi zanjiriga voltmeter hamda vattmetr, chastotamer, energiya hisoblagich (schetchik) va fazometrlarning kuchlanish chulg‘amlari ulanadi. Bu o‘lchash asboblarning elektr qarshiligi katta (taxminan 1000 Om) bo‘lib, kuchlanish transformatorlarining ish rejimi salt ishlash rejimiga yaqin bo‘ladi.


Bu holda  $U_1 = E_1$ ;  $U_0 = E_{2N}$ , deb hisoblash mumkin bo‘ladi, lekin  $U_1 = (w_1/w_2)E_2$  bo‘lgani uchun

$$U_1 = (w_1/w_2)U_2 = kU_2$$

bunda  $k = (w_1/w_2)$  - kuchlanish transformatorining transformatsiyalash koeffitsiyenti.

Kuchlanish transformatorlari bir fazali va uchfazali qilib tayyorlanadi. Kuchlanish  $U = 3000$  V gacha quruq (havo bilan tabiiy ravishda sovutiladigan) qilinib,  $U > 3000$  V bo‘lganda esa moyli (moy bilan sovutiladigan) qilinadi (moyli bo‘lishi chulg‘amlar izolyatsiyasining elektr mustahkamligi katta bo‘lishi uchun ham zarurdir). Masalan, 1-rasmda HOM-35 tipli kuchlanish transformatori (b) va uni tarmoqqa ulash sxemasi (a) ko‘rsatilgan.

Elektr xavfsizligini ta‘minlash maqsadida transformator ikkilamchi chulg‘aming chiqish uchlaridan biri va transformator qoplamasi (kojuxi) zaminlanadi, ya‘ni yerga tutashtiriladi.



1-rasm. Kuchlanishi 35 kV bo‘lgan tarmoqqa mo‘ljallangan NOM-35 tipli kuchlanish transformatorini tarmoqqa ulash sxemasi (a) va uning tashqi ko‘rinishi (b): 1– korpus;

2– yuqori kuchlanishli tarmoqdan ulanadigan sim uchun qisqich; 3– o‘tish izolyatorining kengaytirgichi; 4– moy ko‘rsatkich; 5– zaminlash uchun bolt; 6– moyni to‘kish uchun tiqinli teshik; 7– ikkilamchi chulg‘am uchlari chiqarilgan izolyatsion taxtachaning qopqog‘i va 8– o‘lchash asboblari ga sim ulash uchun shtutser (uchlariga rezba ochilgan biriktiruvchi qism); KT – kuchlanish transformatori.

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan kuchlanish transformatorlari, birlamchi chulg‘amga berilayotgan kuchlanish 80-120 % oralig‘ida o‘zgarganda aniqlik sinfini saqlab qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Elektr mashinalari. Texnika oliy oquv yurtlarining «Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari» yonalishi talabalari uchun darslik – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – 408 b.

2. Салимов Ж.С., Пирматов Н.Б., Бекчанов Б.Э. Трансформаторлар ва автотрансформаторлар. Техника олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. «VEKTOR-PRESS» нашриёти. – Т.: 2009. – 224 б.

3. Бертинов А.И., Алиевский Б.Л., Илюшин К.В. и др. Сверхпроводниковые электрические машины и магнитные системы. Учеб.пособие для вузов. -М.: Изд-во МАИ, 1993.

## МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ХЎЖАЛИК ТУРМУШ ТАРЗИ ВА ЭТНОМАДАНИЙ ЖИҲАТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

**Илхом Жўраев,**

Гулистон давлат университети ўқитувчиси

[almanov20111988@gmail.com](mailto:almanov20111988@gmail.com)

**т.ф.ф.д. Алманов Қ.О** тақризи асосида

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада муаллиф Мирзачўл воҳаси аҳолисининг хўжалик турмуш тарзи ва этномаданий жиҳатларининг ўрганилишига оид бўлган ёзма манбаларни таҳлил қилиш орқали ўлка тарихига оид бир қанча янги маълумотлар беришга ҳаракат қилинган. Мирзачўл воҳасининг ўзаро туташ ҳудудларда тутган ўрни бўйича тадқиқотлар олиб борган турли муаллифларнинг илмий мақола ва монографияларини таҳлил қилиш орқали баъзи хулосаларни бериб ўтган. Ушбу хулосаларга таяниб биз воҳанинг тарихига оид бир қатор муҳим маълумотларга эга бўлишимиз мумкин.

**Калит сўзлар:** Мирзачўл, Тошкент, Хўжанд, Жиззах, Нурото, Чор Россияси, Н.Мирзаева, Туркистон, этнос, уруғ.

**Кириш.** Аввало шуни айтиб ўтиш керак, Мирзачўл воҳаси аҳолисининг хўжалик турмуш тарзи ва этномаданий жиҳатларини фақатгина воҳанинг ўзи билан чегаралаб бўлмайди. Биринчидан, бу ҳудуд Ўрта Осиёнинг бир қатор ҳудудларидан бирмунча фаркли ҳолда қадим даврлар ва ўрта асрларда ўзи алоҳида қитисодий-географик ва этномаданий ҳудуд сифатида бўлмаганлиги ва маҳаллий аҳоли таркибининг доим бир хил бўлмай, турли ижтимоий-сиёсий ва этномаданий жараёнларда фаол иштирок этмаганлиги, энг муҳими бу ҳудудда

қадимдан аҳоли тифиз ва муқим яшаб келмаганлиги каби омиллар Мирзачўл воҳасини алоҳида тарихий-географик ҳудуд сифатида қарашни қийинлаштиради. Маълумки, Мирзачўл воҳасига қўшни Тошкент, Хўжанд, Нурота, Жиззах каби воҳалар бу жиҳатдан Мирзачўлдан бирмунча фарқ қилиб, ушбу ҳудудларнинг кўпчилигида ўзига хос иқтисодий-маданий ва этномаданий ўзлик шаклланган. Улар маҳаллий аҳолисининг ўзлик масалаларида тошкентлик, хўжандлик, нуроталик ва ҳоказо тушунчалар мавжуд бўлса, бу борада Мирзачўлни яхлит олиш бирмунча қийин.

Иккинчидан, Мирзачўл воҳасининг бошқа бир қатор қўшни ҳудудлардан яна бир фарқи бу ер аҳолиси ўзларининг қайси ҳудудга чегарадошлигидан келиб чиқиб, турлича ёндашишлар бор. Масалан, Мирзачўлнинг ғарбдан ва жануби-ғарбдан Нурота воҳасининг шимоли-шарқига туташ ҳудудларида воҳа аҳолига хос анъаналар устуворлик қилса, воҳанинг шимоли в шимоли-шарқий ҳудудларида Тошкент воҳаси аҳолиси мадаанияти билан умумий жиҳатлар кўзга ташланади. Воҳанинг шарқий қисмида эса Хўжанд, айниқса, унинг жанубидаги Ўратепа аҳолиси урф-одатлари билан ўзаро уйқашлик кўринади. Мирзачўл воҳасининг жанубий ҳудудлари аҳолиси эса Жиззах воҳаси билан, айниқса унинг Зомин тумани аҳолиси билан муштараклик бор. Тўғри бунга ўхшаш ҳолатлар Ўрта Осиёнинг бошқа бир қатор воҳаларида ҳам кўзга ташланади, бироқ улар ўз хусусиятларига кўра, Мирзачўлдаги ҳолатдан бирмунча тафовутланади.

Аввало айтиб ўтиш керак, Мирзачўл воҳаси иқтисодий ва маданий марказлари, аҳолиси, этник таркиби, урф-одатлари ва хўжалик турмуш тарзи бўйича маълумотларнинг сезиларли бир қисми Чор Россияси даврига тўғри келади.

#### **- Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review)**

Россия империяси ҳукумати томонидан Туркистонга юборилган маъмурият вакиллари ва рус шарқшунослари томонидан XIX аср охири – XX аср бошлари Мирзачўл воҳасининг ижтимоий, иқтисодий аҳоли ва тарихига оид маълумотлар йиғилган. Бу масала бўйича махсус мақола ёзган Н. Мирзаеванинг

таъкидлашича, Мирзачўл воҳасини XIX асрнинг иккинчи ярмидаги ижтимоий ва этно-демографик ҳолати, Россия империясининг кўчирувчилик сиёсати ва ҳудудга рус аҳолисининг кириб келиши, бу ерда ташкил топган рус қишлоқларининг ижтимоий-иқтисодий аҳволига оид айрим маълумотларни Россия империяси маъмурияти вакиллари бўлган А.И.Макшеев, Л.Костенко, Н.Гаврилов, В.И.Масальский, А.А.Кушакевич, Н.Васильев, А.Кауфман, А.Курсиш, М.М.Бушуев, А.В.Кривошеин, П.Скриплев, А.Купласт, В.Ф.Караваев, В.Вошинин ва бошқаларнинг асарларида учратиш мумкин<sup>11</sup>.

Ушбу тадқиқотларда Мирзачўл ҳудудининг ўзлаштирилиши, воҳада истиқомат қилувчи маҳаллий халқлар ва бу ерда ташкил этилган рус қишлоқлари аҳолисининг ҳўжалик ва маданий ҳаётига доир маълумотлар айрим рус шарқшунослари асарларида умумий ҳолатда баён этилгани кўзга ташланади<sup>12</sup>. Ушбу тадқиқотчилар қаторига атоқли шарқшунос В.В. Бартольднинг Туркистоннинг суғорилиш тизими тарихига бағишланган махсус тадқиқотларини ҳам киритиш мумкин. Тадқиқотчи Мирзачўл воҳаси аҳолиси, тарихи, суғориш ишларида қўлланилган маҳаллий тажрибалар масаласига ҳам тўхталиб ўтган<sup>13</sup>.

XIX асрнинг 60-70 йилларида А.И. Макшеев, А.А. Кушакевич ва Л. Костенколар Мирзачўл ҳудудида яшаган маҳаллий аҳолининг жойлашуви, этник аҳволи ва ҳўжалик тарзи, суғориш тармоқлари ҳақида қимматли статистик маълумотлар келтиришган<sup>14</sup>. Н.Гаврилов Туркистоннинг Сирдарё, Самарқанд ва Фарғона вилоятларидаги кўчириш ҳаракатининг аҳволига баҳо бериш билан бир

<sup>11</sup> Васильев Н. Кочевники Туркестана (Опыт экономического обзора). Самаркандь: Типо-Литография Н.В.Полтаранова, 1890. – 162 с.; Наливкин В. Туземцы раньше и теперь. Очерк В.П.Наливкина. Ташкент: Изд. А.Л.Кирснера, 1913. 144 с.; Лавров М.В. Туркестанъ. География и история края. М.: Думковъ, Ключковъ, Луковниковъ и К, 1914. 198 с.

<sup>12</sup> Мирзаева Н.Ж. Рус тадқиқотчилари асарларида Мирзачўл воҳаси тарихи (XIX аср охири-XX аср бошлари) // XIX – XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллектуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами. - Тошкент – 2018. – 129-134.

<sup>13</sup> Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Спб., 1914. 174 с.; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Ленинград: Изд. АН СССР, 1927. 25

<sup>14</sup> Макшеев А.И. Географические, этнографические и статистические материалы о Туркестанском крае. Записки Императорскаго Русскаго географическаго общества по отдѣлению статистики. Спб., 1871. 60 с.; Костенко Л. Средняя Азия и водворение въ ней русской гражданственности. Спб.: Изд. А.Базунова, 1871. 358 с.; Кушакевич А. Сведения о Ходжентском уезде. Спб., 1875. 20 с.

қаторда, Мирзачўлни ўзлаштириш масаласи юзасидан ҳам қимматли маълумотларни келтириб ўтган<sup>15</sup>.

А.И. Макшеевнинг 1872 йилда нашр қилинган китобида Мирзачўлда яшаган уруғларнинг жойлашган ўрни, овул ва қишлоқлар номи, улардаги ўтовлар сони борасида материаллар тўплаган. Асарда ёзилишича, ўзбекларнинг **қаропчи** уруғига мансуб аҳоли Мирзачўлнинг Эржар, Халқакўл, Майда жинғил, Қолгансир манзилгоҳлари ва Бегавот, Лангар, Чақир, Намингон, Искандар, Сармич, Увоқ, Тарнов, Топқоқ қишлоқларида яшаганлар. Эржар манзилгоҳида ўтовлар сони 19 та бўлган. Халқакўл манзилгоҳи Сирдарёга яқин жойда жойлашган бўлиб, 7 та ўтов жойлашган. Қолгансирда 5 та ўтов бўлиб, бу худдуд Майда жинғилга яқин жойда жойлашган. Майда жинғилда энг кўп, яъни 35 та ўтов жойлашган<sup>16</sup>. **Парчаюз** уруғига мансуб аҳоли қаропчилар билан бирга Халқакўл, Майда жинғил, Эржар манзилгоҳларида ва Ховос қишлоғи яқинидаги даштда Парча, Оққувоқ, Қизилчанғил, Мулла бобо қудуғи номли манзилгоҳларда яшаганлар. Халқакўлда улар 21 та ўтовда, Майда жинғилда 7 та ўтовда истиқомат қилишган, қишлоқни шу ерда қаропчилар билан бирга ўтказганлар. Парчаюзларнинг **уяс** уруғига тегишли аҳоли Эржарда жами 27 та ўтовда, Парчада 12 та, Оққувоқда 15 та, Қизилчанғилда 17 та, Мулла бобо қудуғида 6 та, Ховос қишлоғи атрофида 50 та ўтовда яшаган. Фақат Совет қишлоғида парчаюзлар доимий равишда истиқомат қилганлар. Совет ва Намингон қишлоқларида ўзбеклар истиқомат қилишган. Ховос оқсоқоллигига Хўжақишлоқ, Қўшкент, Итбулоқ, Чанговул, Учтурғон, Қипчоқ, Ховос, Логин қишлоқлари қараган. Энг йирик қишлоқ Ховос бўлиб, 120 та хўжаликдан иборат бўлган. Хўжақишлоқ, Итбулоқ, Қипчоқ қишлоқларидан бошқа барча қишлоқларда дўконлар, тегирмонлар, хунармандчилик устахоналари мавжуд бўлган.

<sup>15</sup> Гаврилов Н. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сыр-Дарьинская, Самаркандская и Ферганская). Спб., 1911.

<sup>16</sup> Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. Гулистон, 2011, 15 б.

Ховос оқсоқоллигида 10 та масжид бўлиб, ҳар бир масжидда бир нафар имом диний маросимларни ўтказилишини назорат қилиб турган. Фақат Хўжақишлоқда масжид ҳам, имом ҳам бўлмаган. Мирзачўлнинг Совет волостида ўзбек – қаропчилар (юзлар) яшаган бўлиб, улар 7 уруққа бўлинган: туркман, қўштамғали, уяс, парчаюз, ачамайли, боёвут, еттиуруғ. Қаропчи қабиласининг 7 уруғи ўз навбатида бир неча бўғинларга бўлиниб овулларда яшаганлар. Овуллар бир неча ўн хўжалиқдан иборат бўлган. Овул қанчалик катта бўлса, хўжалиқлар сони шунчалик кўп бўлган. Гоҳида овулга келиб чиқиши уларга ёт бўлган ўтовлар ҳам келиб қўшилган, аммо улар вақтинча бирга истиқомат қилганлар<sup>17</sup>.

Мирзачўлни ўзлаштириш бўйича Чор Россиясининг Туркистондаги вакиллари турли режалар туза бошлаганлар. Аҳолиси нисбатан кам бўлган ҳудудни ўзлаштириш орқали минтақада рус тилли аҳоли сонини ошириш мақсадида бир неча амалиётлар ишлаб чиқилган. XIX асрнинг охирилари – XX аср бошларида воҳада бир неча славян (рус, украин, белорус) аҳоли масканлари қад ростлаган. Мирзачўлда ташкил топган рус қишлоқлари, улардаги муаммолар ҳақидаги айрим маълумотлар князь В.И.Масальский асарида келтириб ўтилган<sup>18</sup>.

А. Кауфман эса Россия империясининг 1861–1904 йиллар оралиғидаги кўчирувчилик сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари ва кўчириб келтирилган аҳолининг маҳаллий муҳитга мослашуви жараёни, бу ерда ташкил этилган дастлабки қишлоқларнинг хўжалиги, ижтимоий таркибини қараб чиққан. Шунингдек, у Мирзачўлда ташкил этилган рус қишлоқлари аҳолисининг мавжуд экин далаларидан хўжасизларча фойдаланаётганликлари ва асосан ғалла етиштириш билан шуғуланганликлари сабабли етарлича даромад ололмаган, деган хулосага келган. У кўчиб келган рус аҳолиси менонитлар ва маҳаллий аҳоли каби боғдорчилик билан етарли яхши шуғуллана олмайдилар, деб ҳисоблаган<sup>19</sup>.

<sup>17</sup> Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси//Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари.-Тошкент,2007, 17-20 бб.

<sup>18</sup> Масальский В.И. Туркестанский край. Спб.: Изд. А.Ф.Девриена, 1913.

<sup>19</sup> Кауфман А. Переселение и колонизация. Спб.: Типография товарищества “Общественная польза”, 1905.



Мирзачўлнинг табиати ва унда аҳоли жойлашуви шарт-шароитлари ҳақида Н.Н.Леонова, Н.И. Леоновлар: «Мирзачўл воҳаси Туркистон тизмасининг шимолий ёнбағрига келиб адирликлар билан аралашиб кетади. Бир замонлар ҳар бир адирлик оралиғидаги сойлардан сувлар оқиб, чўл ҳудудини ҳам суғорган. Аста-секин сув оқими адирлик сойларида камайиб, аҳоли тоғ атрофларига ва дарё қирғоқларига бориб ўрнашган. Мирзачўл ҳудудида яқин 90-йиллардан аввал ҳеч қандай қишлоқ бўлмаган. Фақатгина Тошкент-Жиззах-Самарқанд-Бухоро савдо тармоғи ва карвонсаройлар мавжуд эди, холос» деган фикрлар билдиришган<sup>20</sup>.

1917 йилда Мирзачўлни тадқиқ этган В.Ф.Караваев ёзади: «Чўлга келиб қолган кузатувчининг кўз ўнгида ҳаётдан асар ҳам кўринмайдиган, куёш жазирамасидан қовжираб қуриган гиёҳларнинг сарғиш-кулранг кенглиги намоён бўлади, айрим жойларда оппоқ доғлар ва баъзида чўл ўсимликларининг буталари кўзга чалиниб қолади<sup>21</sup>»

Бошқа манбаларда ҳам Сирдарё қирғоқларидагина баъзи бир турар-жойлар бўлганлиги, аҳоли чорвачилик, деҳқончилик билан шуғулланганлиги қайд қилинган. Бир вақтлар бўлган турар-жойларнинг харобалари сақланиб қолган. Мирзачўлда турар жойларнинг камлиги суғориш учун сув етмаганлиги ва Сирдарё сувини чўлга чиқариш жуда қийин бўлганлиги билан изоҳланади.

Мирзачўл воҳаси иқтисодий ва маданий марказлари, аҳолиси, этник таркиби, урф-одатлари ва хўжалик турмуш тарзи бўйича маълумотларнинг сезиларли бир қисми собиқ совет даврига тўғри келади. Бу даврда ёзилган тадқиқотларда гарчи совет мафқураси яққол уфуриб турса-да, келтирилган материаллар ораисда айтиб ўтилган масалаларга доир бирламчи маълумотларни олиш мумкин. Масалан, А.Г. Абдунабиевнинг 1959 йилда ёзилган “Мирзачўлни ўзлаштирилиши тарихидан” деб номланган рисоласида воҳани ўзлаштирилиши бўйича бирмунча маълумотлар олиш мумкин<sup>22</sup>. Шунингдек, 1960-йилларнинг

<sup>20</sup> Леонова Н.Н., Леонов Н. И. Голодная степь (Историко-географический очерк). – Ташкент, 1957. – С. 73.

<sup>21</sup> Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статистический очерк. Петроград, 1914.

<sup>22</sup> Абдунабиев А.Г. Мирзачўлни ўзлаштирилиши тарихидан. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон – Правда Востока, 1959.

биринчи ярмигача воҳада олиб борилган ўзлаштириш ишлари бўйича А.Г. Абдунабиевнинг “Мирзачўлнинг бугуни, эртаси” номли рисоласида воҳада юз берган ўзгаришлар, аҳолининг кўчиб келтирилиши, янги барпо қилинган аҳоли масканлари, чўлқуварлар томонидан олиб борилган бунёдкорлик ишлари ҳақида сўз бориб, бу борада аниқ далиллар келтирилиши билан биргаликда, Мирзачўлнинг ўзлаштирилишида коммунистларнинг тутган ўрни айтиб ўтилиб, Марказдаги коммунист раҳбарларнинг фаолиятига ҳаддан ортиқ даражада баҳо берилгани, воҳадаги барча ўзгаришларнинг бошида улар тургани каби масалаларга урғу берилади<sup>23</sup>.

Шу билан биргаликда, Мирзачўл воҳасининг ўзлаштирилиши, бу ернинг суғориш тизими ва тупроқнинг шўрланиши масалалари ёритилган бир қатор соф илмий тадқиқотлар ҳам олиб борилди. Жумладан, М. Абдураззоқовнинг “Шўр ерларни ўзлаштириш усуллари” номли илмий рисоласида воҳанинг ўзлаштирилиш тарихига ҳам бирмунча тўхталиб ўтилгани кўзга ташланади<sup>24</sup>.

Мустақилликнинг дастлабки йиллариданок Мирзачўлнинг ўзлаштирилишида қўлга киритилган ютуқлар билан бир қаторда минтақада экологиянинг бузилиши, кўплаб ерларнинг ортиқча шўрланиши натижасида воҳада келиб чиққан иқтисодий ва ижтимоий муаммолар масаласи ҳар кўтарила бошлади. Хусусан, А. Раззоқовнинг “Ўзбекистонда пахтачилик тарихи (ўтмиш ва ҳозир)” деб номланган монографиясида бу масалалар ёритилиши жараёнида Мирзачўл воҳасидаги аҳвол, аҳоли турмуш тарзига экологик муаммоларнинг таъсири масалалари ҳам кўриб чиқилган<sup>25</sup>.

Мирзачўл воҳасида XIX аср охири – XX асрда кечган жараёнларни тадқиқ қилар эканмиз албатта бу масалада Тошкент, Нурота, Жиззах ва ҳоказо қўшни ҳудудлар бўйича олиб борилган тадқиқотларда Мирзачўл воҳаси аҳолиси билан боғлиқ масалаларга ҳам тўхталиб ўтилганлигига кўзимиз тушади. Шу ўринда айтиб ўтиш керак, Нурота ва Жиззах воҳаси аҳолиси, уларнинг хўжалик

<sup>23</sup> Абдунабиев А.Г. Мирзачўлнинг бугуни, эртаси. – Тошкент: Ўзбекистон КП МК нашриёти, 1964. – Б. 4-30.

<sup>24</sup> Абдураззоқов Қ. Шўр ерларни ўзлаштириш усуллари. – Тошкент, 1960. – Б. 5-20.

<sup>25</sup> Раззоқов А. Ўзбекистонда пахтачилик тарихи (ўтмиш ва ҳозир). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 216, 219, 229.

ҳаёти ва этномаданиятини тадқиқ этган изланувчилар Мирзачўл воҳасига ҳам бирмунча эътибор берганлиги диққатни тортади. Жумладан, кўп йиллар давомида Нурота ва Жиззах воҳаси этнографияси бўйича илмий мақолалар эълон қилган Т. Салимов Нурота воҳасининг ўзбек-туркман деб аталувчи ўзбек аҳолисининг воҳада тарқалиши бўйича маълумотлар келтирар экан, уларнинг Мирзачўл воҳасига туташ ҳудудлардаги қисмлари ҳақида ҳам бирмунча тўхталиб ўтади<sup>26</sup>. Тадқиқотчига кўра, Сурхон воҳасининг туркман-жуз деб аталувчи ўзбеклари Сирдарё, Ўратепа ва Нурота воҳаси аҳолиси билан боғлиқлиги, уларнинг аجدодлари қачонлардир ушбу ҳудудлардан Сурхон воҳасига кўчганликлари тўғрисида халқ оғзаки ривоятлари борлиги ҳақида ёзганлигига<sup>27</sup> эътибор қаратади.

Нурота воҳаси аҳолисининг этномаданий хусусиятлари бўйича махсус илмий тадқиқот олиб борган А. Тоғаев Нурота воҳаси ўзбек найманларининг XX аср 50-60 йилларида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши жараёнида Сирдарё вилоятнинг туман ва йирик аҳоли масканлари бўлмиш “Малик”, “Боёвут”, “Пахтакор” каби ҳудудларига кўчиб бориб жойлашганлигини ёзади<sup>28</sup>.

### **Тадқиқот методологияси (Research Methodology)**

Мирзачўл воҳаси бўйлаб Ўрта Осиёнинг у ёки бу ҳудудларига, шимол ва шимоли-шарқдан жануб ва жануби-ғарбдан бир қатор миграция жараёнлари юз берганлигига масаласига бир қатор тадқиқотчилар қисман тўхталиб ўтишган. Айниқса, сўнгги ўрта асрларда Сурхон воҳаси, Ҳисор тоғлари бўйлаб шимол ва шимоли-шарққа – Самарқанд, Тошкент ва Фарғона вилоятларига қараб силжиган айрми кўчманчи ўзбек уруғлари билан боғлиқ жараёнлар Мирзачўл – Сирдарё ҳавзалари бўйлаб амалга оширилганлиги ўз даври ёзма манбаларида акс этган.

## **26**

// Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Выпуск 5 Древность. Средние века. Новое время. Отв. ред. Ш.С.Камолиддин. Saarbrücken: LAP, 2020. – С. 20.

<sup>27</sup> Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М.: Наука, 1976. – С. 222, 229

<sup>28</sup> Тоғаев А.Р. Нурота воҳасида этномаданий жараёнлар (XX асрнинг I ярми) / Т.ф.н. ... дисс. Тошкент, 2011. – Б. 42.

Тадқиқотчиларга кўра, ўзбекларнинг *минг, юз* (жуз) уруғлари Мирзачўл орқали Фарғона водийсига, Тошкент воҳасига ва Хўжанд атрофларига кўчар экан, уларнинг бир қисми Мирзачўл воҳасида жойлашиб қолишган<sup>29</sup>.

Мирзачўл воҳасига иқтисодий ва этномаданий жиҳатдан энг яқин тарихий-географик ҳудудлардан бир Зомин тумани бўлиб, бу ҳудуд аҳолиси қадим ва ўрта асрларда бўлгани каби сўнгги ўрта асрларда ҳам воҳа аҳолиси билан тиғиз алоқаларда бўлиб келган. Ҳатто XIX аср охири – XX аср бошларида ҳам Мирзачўл воҳаси аҳолисининг бир қисми зоминликлар билан қариндош-уруғчилик алоқларига эга бўлишган. Айниқса, Зомин қишлоқларида яшовчи ўзбекларнинг найман, турк, жуз каби уруғлари вакиллари Мирзачўлнинг иқлими нисбатан қулай, яйловли ерларида ўз чорва молларини боқишган. XX асрнинг иккинчи ярмида воҳа ерларининг ўзлаштирилиши ва бу ерларда мамлакатимизнинг турли вилоятларидан кўчирилган аҳолиларга янги турар-жойлар барпо этилганда Зомин туманидан кўплаб аҳоли Сирдарё вилоятининг деярли барча туманларига келиб жойлашганлар. Тадқиқотни амалга ошириш жараёнида Зоминдан кўчган аҳолининг катта қисми бугунги кунда ҳам нисбатан компакт бўлиб яшаётганликлари ва ўз урф-одатларини сақлаб келаётганликлари, шунингдек, ўзларининг ота-боболари яшаган ҳудудлар билан тиғиз алоқаларни давом эттириётгани кўзга ташланди. Уларнинг урф-одатлари, шеваси, умуман олганда, этнографик хусусиятларини ўрганишда Б. Тўйчибоев ва Қ. Қашқирли томонидан 2012 йилда нашр қилинган “Зоминнинг тил қомуси” номли монографияга мурожаат қилиниди<sup>30</sup>. Бир қарашда тилшуносликка бағишлангандек туюлувчи ушбу монографияда Зомин қишлоқларидаги аҳолининг турмуш тарзи, хўжалиги, урф-одати, қадимий анъана ва удумлари, овқатланиш маданияти, мақол ва турли ибора-ю атамалар билан танишиш имкониятига эга бўлиш мумкин. Мирзачўлда яшовчи аҳолининг никоҳ ва оилавий алоқалари, уй тутиши, таом маданияти ва ҳоказоларни ўрганишда ушбу тадқиқотнинг алоҳида ўрни бўлганини айтиб ўтиш керак.

<sup>29</sup> Салимов Т. Этнический состав и расселение населения Нуратинского оазиса. – С. 19-20.

<sup>30</sup> Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2012.

Мирзачўл воҳаси аҳоли маканларини аниқлаш ва уларнинг номланишида ўрин тутган омилларни ўрганишда таниқли топонимист олим С. Қораевнинг илмий ишларининг ўрни беқиёсдир. Асли Жиззах вилоятидан бўлган ушбу тадқиқотчи кўп йиллар давомида Ўзбекистондаги жой номларини ўрганар экан Сирдарё вилояти ва унга қўшни худудлардаги аҳоли масканларининг номланиши, топонимларнинг этимологияси, қисқача тарихи, аҳолисининг этник таркибига ҳам тўхталиб ўтган. С. Қораев биринчилардан бўлиб, Мирзачўл воҳасидаги этнотопонимларни анча кенг ёритиб, воҳада боёвут, юз, қарапчи, солин каби ўзбек уруғлари билан боғлиқ аҳоли масканларини аниқлаган, шу билан бирга воҳадаги қадимий қишлоқ номлари, уларнинг қадим ва ўрта асрлардаги аҳоли масканлари билан қанчалик боғлиқлиги масалаларига эътибор қаратган<sup>31</sup>. Тадқиқотчига кўра, воҳада Сабат (Совот), Ховос каби йирик қадимий аҳоли масканлари жойлашган бўлиб, улар IX – XII асрга тегишли араб ва форс тилли географик асарларда учраши билан бирга деярли ўзгаришга учрмаган ҳолда бугунги кунгача сақланиб қолган.

Мирзачўл воҳаси аҳолисининг этнографик хусусиятларига доир маълумотлар археолог олим А. Грицинанинг бир қатор нашрларида ўрин олган бўлиб, унинг изланишлари воҳадаги қадимий аҳоли масканлари – шаҳар ва йирик қишлоқлар қолдиқларига бағишланган бўлса-да, ўз изланишлари жараёнида маҳаллий аҳолидан эшитган ва тўплаган материалларининг бир қисми ўзбек уруғларини ҳам қамраб олган<sup>32</sup>. Айниқса, тадқиқотчининг Жиззах воҳаси ва Мирзачўлдаги юз, қарапчи, солин каби этнонимларга алоқадор йиққан материаллари ўзининг анча кенг қамровлилиги билан алоҳида ажралиб туради.

Сирдарё вилоятига кўчиб, бу ерда ўз қишлоқ ва маҳалларини ташкил этган ва уларга ўзларининг олдинги яшаш жойларининг номини берган аҳоли билан боғлиқ материалларни А. Маликовнинг ишлари орқали ёритиш мумкин.

<sup>31</sup> Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1978; Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул. муҳаррир: А. Муҳаммаджонов. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 122.

<sup>32</sup> Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992; Грицина А. А. Усрушанские были. – Т., 2000.

Тадқиқотчи Зарафшон воҳаси, хусусан, Самарқанд ва Навоий вилоятларидаги этнонимларни ўрганиш жараёнида юзлаб этнонимларни тадқиқ этган бўлиб, уларнинг бир қисми Сирдарё вилоятида ҳам учрайди. Масалан, Миришкор - Боёвут туманидаги қишлоқ шундай аталиб, ўзбек уруғларидан бири “миришкор” деб аталган. Топонимист С. Қораев *миришкор, мерушкор, мурушкор* номлари билан аталган аҳоли гуруҳини ўзбек халқи таркибига кирган ижтимоий гуруҳ деб ёзиш билан бирга, вилоятдаги Миришкор топонимини чўлни ўзлаштиришда “ўз ишининг устаси”, “моҳир пахтакор” маъносида бўлса керак деб қарайди<sup>33</sup>. Ушбу аҳоли маскани аҳолисининг катта қисмини зоминликлар, бахмалликлар, форижликлар ва қайирмаликлар ташкил этади. А. Маликовнинг аниқлашича, ўзбекларнинг миришкор уруғи билан боғлиқ жой номлари XIX – XX аср бошларида мамлакатимизнинг бир неча воҳаларида кенг тарқалган бўлиб, Бухоро, Навоий, Самарқанд, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятлари ва Жанубий Тожикистонда ушбу уруққа алоқадор ўнлаб қишлоқлар мавжуд бўлган. Хусусан, XX аср бошларига оид Бухоро амирлиги ҳужжатларида ўнлаб шундай номдаги аҳоли масканлари қайд этилган<sup>34</sup>. XX асрда Самарқанд вилояти Самарқанд, Қўшрабат, Пайариқ туманларида, Бухоро вилояти Қоракўл, Вобкент, Пешку, Ғиждувон, Бухоро, Шофиркон туманларида, Навоий вилоятининг Кармана ва Нурота туманларида шу номдаги аҳоли масканлари тилга олинган<sup>35</sup>.

Шунга ўхшаш ҳолат Қанғли номли қаҳоли масканлари билан боғлиқдир. XX асрнинг иккинчи яримидан сўнг аҳоли сонининг ошиши, янги ерларнинг муттасил ўзлаштирилиши (асосан Мирзачўл ва Сирдарё чўлларининг) бошқа этник қатламлар қатори қанғлиларнинг катта қисмининг янги ерларга кўчиб ўтишларига, бир қисмининг шаҳарларга жойлашишларига имкон туғилди. Айниқса Мирзачўлнинг тезкорлик билан ўзлаштирилиши натижасида ёш оилаларнинг аксарияти Дўстлик, Арнасой, Пахтакор, Зарбдор, Оқ олтин, Боёвут туманларига кўчиб ўтадилар. Ушбу туманлардаги аҳоли масканларида ҳозирги

<sup>33</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари ..., б. 124.

<sup>34</sup> Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) // Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Т.: Университет, 2001. – С. 97.

<sup>35</sup> Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнонимы долины Зерафшана ... – С.168.

кунда қанғлиларнинг жамоа-жамоа бўлиб жойлашган қон-қариндош уюшмаларини учратиш мумкин. Бунга ҳозирги кунда Боёвут туманида «Қанғли» номли маҳалла-этник гуруҳ мавжудлиги яққол мисолдир. Бироқ буларнинг барчаси ўзларини ўзбек халқининг таркибий қисми эканликларига алоҳида урғу берадилар.

Совет даври ва мустақиллик йилларида Мирзачўл воҳасининг ўзлаштирилиши, аҳоли демографияси ва ҳоказо масалаларда Б. Аминов, Р. Эгамбердиев, А. Раззоқов, У. Алибеков, З. Аширбоева, О. Комилов, З. Маҳмудов ва яна бир қатор тадқиқотчиларнинг мақола, диссертация ва монографиялари алоҳида ўрин тутди<sup>36</sup>.

#### **4.Хулосалар:**

Хуллас, Мирзачўл воҳаси аҳолисининг хўжалик турмуш тарзи ва этномаданий жиҳатларининг ўрганилиши тарихига қисқача назар ташлаганимизда, Чор Россияси, собиқ Совет иттифоқи ва мустақиллик даравларида бир қатор илмий ишлар амалга оширилгани, уларда асосий эътибор воҳанинг ўзлаштирилиши масаласига қартилганлиги, шу бимлан бирга айрим ўринларда маҳаллий аҳолининг этник таркиби, уруғ-қабилавий бўлиниши, аҳолининг урф-одатлари, турмуш тарзи, қадимий анъаналари каби масалаларга ҳам қисқача тўхталиб ўтилганлиги кўга ташланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

---

<sup>36</sup> Аминов Б. К вопросу формирования населения голодной степи за годы советской власти. // Научные статьи и тезисы. – М., 1988. – С. 147; Эгамбердиев Р., Раззоқов А. Ўзбекистонда кўрик ерларини суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи. Тошкент: “Фан” 1984; Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари.-Тошкент, 2007. – Б. 17-20; Аширбоева З.Х. XIX аср охири – XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Автореферат. т.ф.н. Т. 2008 й. 12-16-17; Комилов О.К., Маҳмудова З.О. Марказий Фарғона ва Мирзачўл ерларини ўзлаштириш тарихидан (XX асрнинг 50-70-йиллари мисолида) // Илмий хабарнома, АДУ, №1 2017. – Б. 63.

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<p><b>РАДИАКТИВ МОДДАЛАРНИНГ ЕР ТАРКИБИГА ВА ИНСОН САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИРИ, РАДИАКТИВ МОДДАЛАРДАН ТЎҒРИ ФОЙДАЛАНИШ</b></p> <p><i>Абдухалимова Маржона Алишер қизи, Тўлқинов Бахтиёр Файрат ўғли</i></p> <p><b>Page No.: 3-7</b></p>
2	<p><b>КУШМУЛЛА МАЙДОНИНИ ГЕОЛОГИК ТУЗИЛИШИ</b></p> <p><i>Панжиев Ҳикмат Аҳадиллаевич</i></p> <p><b>Page No.: 8-10</b></p>
3	<p><b>TAEKVONDO SPORT TO‘GARAKLARINING UMUMTA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA TA’SIRI</b></p> <p><i>Abdiraxmonov Nodirjon Qobiljonovich, Ergashev Sardor Tohirjonovich</i></p> <p><b>Page No.: 11-14</b></p>
4	<p><b>“JANNAT MEVASI” – HAR DARDGA DAVO</b></p> <p><i>Oripova Mahliyo Bahodir qizi</i></p> <p><b>Page No.: 15-19</b></p>
5	<p><b>LINGUACULTURAL ASPECTS OF MODAL VERBS IN ENGLISH LANGUAGE</b></p> <p><i>Usmonova Dono Sotvoldievna, Yunusov Akhliddin Ubaydullayevich</i></p> <p><b>Page No.: 20-24</b></p>
6	<p><b>MASHG‘ULOTLARDA MUSOBAQA USULI ORQALI KURASHCHILARNING HUJUM VA HIMOYADAGI TAKTIK HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH</b></p> <p><i>Mashrapova Shohsanam Shuxratjon qizi, G‘ulomov Zafar Voxidjon o‘g‘li</i></p> <p><b>Page No.: 25-29</b></p>



7

**TILNING FONETIK TUZILISHI, UNDOHLARNING TASNIFI VA QOZOQ TILI BILAN O'XSHASHLIKLARI**

*Kukanova Guli Nurgali qizi, Shafqorov Abdishukur Musaevich*

**Page No.: 30-33**

8

**CHAQALOQLAR O'SISHI VA RIVOJLANISHIDAGI FIZIOLOGIK JARAYONLAR**

*Ro'zimurodov Iskandar Zafar o'g'li*

**Page No.: 34-37**

9

**UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHINI YENGIL ATLETIKA SPORT TURI ORQALI NAZORAT QILISH USULLARI**

*Sharipov Arabboy Shermirza o'g'li, Sobirova Hilola Hamidullayevna*

**Page No.: 38-42**

10

**NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA BOSHQARUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH**

*Xusanova Jumagul Sayib qizi*

**Page No.: 43-45**

11

**МІРЖАҚЫП ДУЛАТОВТЫҢ -ШЫҒАРМАШЫЛЫҚ ЖОЛЫ**

*Куканова Гули Нурғалиевна,*

*Жандос Абдазимович Байзаков*

**Page No.: 46-49**

12

**СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА МЕВА-САБЗАВОТ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ**

*Назарова Мунаввар Соатмурод қизи*

**Page No.: 50-56**

13

**ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМИЙ ЁНДАШУВНИНГ МОҲИЯТИ**

*Бузанов Нодирбек Пардабой ўғли*

**Page No.: 57-61**

14

**ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗА НАВЛАРИНИНГ F1 ДУРАГАЙЛАРИДА  
БАРГЛАРНИНГ СОЛИШТИРМА САТҲ ЗИЧЛИГИ БЕЛГИСИНИНГ  
ИРСИЙЛАНИШИ**

*Ниёзалиева Муслима Икромжон қизи*

**Page No.: 62-66**

15

**BOLALARDA UCHRAYDIGAN KO‘KYOTALNI DAVOLASH  
PROFILAKTIKASI**

*Urdusheva Madina O‘rol qizi*

*Hamdamova Zilola Hamdam qizi*

**Page No.: 67-72**

16

**ELEKTR O‘LCHASH SXEMALARI UCHUN TRANSFORMATORLAR**

*Javohir Boboqulov Saydulla o‘g‘li,*

*Otabek Xayrullayev Nurbek o‘g‘li.*

**Page No.: 73-75**

17

**МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ХЎЖАЛИК ТУРМУШ ТАРЗИ  
ВА ЭТНОМАДАНИЙ ЖИҲАТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ**

*Илхом Жўраев, Алманов Қ.О*

**Page No.: 76-87**